

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**NAZORAT MEXANIZMINI SAMARADORLIGII OSHIRISHDA
MA'NAVIYATNING O'RNI**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Raximova I.

Ilmiy rahbar: prof.Nabiyev F.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2013 yil ____ ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№ ____).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____ ____dagi majlisida
himoya qilindi va ____ foizga baholandi (bayyonnoma № ____).**

Samarqand – 2013.

Mavzu: Nazorat mexanizmini samaradorligi oshirishda ma`naviyatning o`rni

Kirish

I.Bob. Nazorat mexanizmini insoniyat jamiyatidagi ahamiyati.

- I. 1. Insoniyat jamiyati tuzilishi va uning nazoratga muhtojligi.
- I. 2. Nazorat mexanizmini tarkibi va uni elementlari o`rtasidagi bog`liqlik.

II. Nazorat mexanizmini muhim elementi bo`lgan ichki nazoratni shakllantirishda ma`naviyatning o`rni

II.1. Nazorat tizimining tarkibiy qismi bo`lgan fuqarolik jamiyati nazoratini kuchaytirish omillari

II.2. Nazorat mexanizmida muhim ahamiyatga ega bo`lgan daxldorlik hissini shakllantirishda ma`naviyatni o`rni

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan boshlab nazoratga ehtiyoj paydo bo'lgan, chunki jamiyat odamlar majmuidan iborat bo'lib hisoblanadi va undagi har bir odam tabiatan nazoratga muhtoj, nega deganda har bir odamda tabiatan egoizm bor, egoizm esa nazoratni taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini shakllantirish muammolari barcha vaqtlarda davlat rahbarlari va donishmandlarni o'ylantirib kelgan eng dolzarb va ayni bir paytda eng murakkab vazifalardan bo'lib kelgan. Buguni kunda ham nazorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammo eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bayon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi va vazifalari: Mamlakatimizda jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun modernizatsiyalash kontsepsiyasida nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish kerakligi asoslangan. Chunki, ijtimoiy tartib qonunga rioya qilish ta'minlanganlik holati bo'lib u mukammal nazorat tizimini taqozo etadi. Nazorat bo'lmagan joyda qonunga rioya qilishni amalda ta'minlab bo'lmaydi, nega deganda yuqorida ta'kidlaganimizdek insoniyat jamiyati tabiatan nazoratga muhtojdir. Ijtimoiy tartib qonun ustuvorligiga, qonun ustuvorligi esa, nazoratga bog'liq. Ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini shakllantirish va kuchaytirish masalasi mamlakatni modernizatsiyalash kontsepsiyaning ustuvor vazifalaridan bo'lib hisoblanadi

Mavzunihg o'rganilganlik darajasi: Nazorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar doimo jamiyatshunos olimlarning izlanish ob'ekti bo'lib

kelgan. Ammo nazorat faoliyati asosan yuqoridan amalga oshiriladigan davlat nazorati nuqtai nazaridan o'rganidlgan. Bugungikunga kelib nazorat faoliyatini faqat yuqoridan bo'lgan davlat nazorati sifatida emas, balki tizimli xarakterda bo'lgan davlat va jamiyat nazorati sifatida o'rganish boshlandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrda "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kotseptsiyasini" bayon qilinishidan keyin nazorat masalalariga bo'lgan qiziqish ortib ilmiy tadqiqot ishlari ko'paya boshladi. Respublikamizdagi taniqli jamiyatshunos olimlar nazorat tizimi bilan bog'liq bo'lgan turli muammolarni ilmiy tadqiq qilishi boshlashdi. Jumladan, SamDU professori F. X. Nabiev "Ijtimoiy nazorat" nomli o'quv kursini oliy ta'lim tizimiga joriy qilish kerakligini asoslab beodi va ushbu mavzuga doir bir nechta ilmiy maqolalarni gazeta va jurnallarda nashr ettirdi¹.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va predmeti: Nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishda ma'naviyatni rolini oshirish masalasi malakaviy bitiruv ishining **obyekti** hisoblanib, nazorat mexanizmini haraktga keltiruvchi kuch ichki nazorat ekanligi va u axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan ma'naviyat orqali ta'minlanishi mumkinligini tahlil qilish va asoslab berish tadqiqotning **predmeti** bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning yangiligi. Nazorat mexanizmi muammosi ushbu faoliyat turining hali etarli darajada o'rganilmagan eng yangi sohasi va jig'ati bo'lib hisoblanadi, chunki shu vaqtgacha nazorat va nazorat tizimi to'g'risida gapirib kelindi. Endi nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish to'g'roisida gapirish dolzarb bo'lib qoldi. Shuning uchun nazorat mexanizmini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlar endigina boshlangan yangi izlanishlar sirasiga kiradi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishiga xizmat qiladigan nazorat tizimida qonunga rioya qilishni ta'minlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

1

I.A.Karimov Mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasi bayon qilinishidan ancha oldin, o'zini "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida shunday fikr bildirgan edi: "Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib borilayotgan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obru-e'tibori – hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim"¹.

Ilmiy faraz. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni harakatga keltiruvchi kuch bu ma'naviyat ekanligi ilmiy fapraz bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2 ta bob, 4 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Xulosa qismida yuqoridagi boblar va paragraflarda ifodalangan fikrlardan kelib chiqqan xolda umumiy fikrlar xulosalanadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон хх—XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент. "Ўзбекистон", 1997 йил, 94-бет

I. BOB. NAZORAT MEXANIZMINI INSONIYAT JAMIYATIDAGI AHAMIYATI

1- § Insoniyat jamiyati tuzulishi va uning nazoratga muhtojligi

Insoniyat jamiyatini tartibga solish uchun nazorat kerakligini anglab olish uchun insoniyat jamiyatini tuzulishini o'rganish kerak bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini shakllantirish muammosi insoniyat jamiyatini tarkibini tahlil qilishni taqozo etadi. Barcha vaqtlarda jamiyatshunos olimlar insoniyat jamiyatini o'rganishga kirishar ekanlar, eng avvalo jamiyat tarkibini va uning elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni topishga harakat qilishgan. Jamiyatni tahlil qilish ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun insoniyat jamiyati nazoratga muhtoj ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Buning uchun ya'ni insoniyat jamiyatida nazorat tizimini o'rni bilish uchun jamiyatning tuzilishini va rivojlanish qonuniyatlarini bilish kerak. Ma'lumki, jamiyat odamlar majmuidan iborat, odamlar esa o'z ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qilib o'zaro munosabatga kirishadi. Shuning uchun insoniyat jamiyati munosabatlar majmuidan iborat bo'ladi. Jamiyat nima ekanligini bilish uchun uni aniq bir ilmiy ta'rifini bilish kerak. Jamiyat tushunchasi jamiyatshunoslik fanlarini markaziy yoki asosiy kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Barcha ijtimoiy fanlar jamiyat tushunchasiga ta'rif berishga harakat qilishadi. Bunda ular ijtimoiy hayotni u yoki bu sohasidan kelib chiqishadi va shuning uchun ularni ta'rifini jamiyat to'g'risidagi umumiy ta'rif bo'la olmaydi. Jamiyat to'g'risidagi umumiy ta'rifni sotsiologiya fani beradi.

Barcha ijtimoiy fanlar jamiyatni o'rganishadi va insoniyat jamiyati tug'risida gapirishdan oldin uni aniq bir ilmiy ta'rifini berishga harakat qilishadi. Falsafiy lug'atlarda jamiyatga ko'plab ta'riflar berilgan, jumladan ulardan birida quyidagi ta'rif berilgan: "Jamiyat – o'z hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda o'zaro alaqdor bo'lgan odamlar birgalikda yashashining muayyan ijtimoiy

tizimidir”¹. Insoniyat jamiyatida odamlar o’rtasida muayyan munosabatlar – ijtimoiy munosabatlar o’rnatiladi, ular ob’ektiv xarakterga ega. Bu munosabatlar kishilarning ob’ektiv ehtiyojlari va yashash sharoitlari natijasida shakllanadi. Odamlar doimo jamiyatni tahlil qilishga urinib kelishgan va natijada jamiyat to’g’risida xilma-xil nazariyalar paydo bo’lgan. Insoniyat jamiyati to’g’risidagi nazariyalardan biri bo’lgan mexanistik nazariyalar jamiyatni tarixni maxsuli sifatida yoki insoniy faoliyat natijasi sifatida ko’rmaydi. Bu nazariyalar jamiyatni noaniq tushunib, uni ya’ni jamiyatni abstrakt individlarni majmui sifatida ta’riflashadi.

Bunday ta’rifda insonni ijtimoiy mohiyati namoyon bo’lmaydi. Shuning uchun jamiyatga ta’rif berganda uni nafaqat tabiiy mohiyatini, balkim ijtimoiy mohiyatini ham ko’rsatish lozim. Ta’rifda insonni tabiiy va ijtimoiy mohiyati namoyon bo’lishi lozim. Lekin, inson tabiatni qismi bo’lish bilan birga u o’zini mehnati bilan tabiatga ta’sir etib o’ziga yashash uchun sharoit yaratadi. Inson faqat tabiiy mavjudot emas ya’ni, tabiat uchun emas, balkim o’zi uchun yashaydigan mavjudot va shuning uchun u jamoaviy, urug’iy yoki ijtimoiy mavjudotdir. Inson o’z mehnati bilan, o’zini tabiiy zaruriyatlardan xoli bo’lgan universal mavjudot sifatida namoyon qiladi. Hayvondan farq qilib ya’ni o’z hayotini tabiatdan farq qilmaydigan hayvondan farq qilib inson o’z hayot faoliyatini o’zini xohishi va ongini predmetiga aylantiradi. Hayvon tabiat bergan narsa bilan yashaydi, inson esa tabiatga o’z mehnati bilan ongli ta’sir etib yashaydi. Bunda u o’zini ijtimoiy mohiyatini namoyon qiladi. Lekin, inson mehnat jarayonida nafaqat tabiatga nisbatan munosabatda, balkim bir-birlariga nisbatan ham munosabatda bo’lishadi. Ana shu munosabatlarning majmui jamiyat tushunchasini ifodalaydi. Munosabatlar majmuidan iborat bo’lgan insoniyat jamiyati tabiatan nazoratga muhtoj bo’ladi, chunki har bir insonda tabiatan egoizm hususiyatlari bor bo’lib u nazoratni taqozo etadi.

¹ Фалсафа қисқача изоҳли луғат. “Шарқ” нашриёти. Тошкент-2004. 135-бет

Shunday qilib insoniyat jamiyatini odamlarni tabiatga va bir-birlariga bo'lgan munosabati majmui sifatida ta'riflash mumkin.

Insoniyat jamiyatini yaxlitligini ikki xil munosabat orqali tushunish kerak. Birinchi bu insonning tabiatga bo'lgan munosabati. Bu munosabat ozmi ko'pmi gomogen (bir xil) va yagonadir. Bu munosabat tabiatni bo'ysundirish maqsadida insoniyatni tabiatga munosabatidir. Ammo insoniyat jamiyati, odamlar o'rtasidagi munosabat majmui sifatida yagona emas, bo'lingan. Odamlar o'rtasidagi munosabat xususiy munosabat va o'zaro ta'sirdan tortib to sinfiy munosabatlargacha bo'lingan. Bunday munosabatlar butun insoniyat tarixi davomida asosan qarama-qarshi munosabatda bo'lgan va oxir oqibatda revolyutsion o'zgarishlarni keltirib chiqarishda ifodalanadi. Shuning uchun insoniyat jamiyati tabiatan ijtimoiy tartibni o'rnatishga muhtojdir. Xilma-xil ehtiyojlari va manfaatlari bo'lgan individlar majmuidan iborat bo'lgan insoniyat jamiyati tabiatan nazoratga muhtoj, chunki, nazorat bo'lmasa ijtimoiy tartibni o'rnatib bo'lmaydi. Buning uchun odamlarda jamiyatga nisbatan befarqlik kayfiyati yuqolib daxldorlik hissi bilan yashashlari lozim. Befarqlik kayfiyati kuchli bo'lgan jamiyatda ijtimoiy tartibni o'rnatish muammo bo'lib qoladi va oqibatda ijtimoiy muammolar kuchaya boshlaydi. "Chunki, aynan ana shu befarqlik kayfiyati jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy muammolarning sababi hisoblanadi".¹ Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" nomli asarida asosiy e'tibor befarqlik kayfiyatini yuqotib daxldorlik hissini shakllantirishga qaratilgan. Chunki, befarqlik kayfiyati bo'lgan joyda nazorat tizimi samarali ishlamaydi².

Ijtimoiy munosabatlarni murakkabligi shundaki, ijtimoiy munosabatlar tabiiy voqeliklar bilan bog'lanib ketgan. Insoniyat jamiyatida odamlar nafaqat tabiat bilan munosabatga kirishadi, balkim ular o'zaro bir-birlari bilan ham munosabatga kirishadi. Tabiatga bo'lgan munosabat tabiatni o'zlashtirishda

¹ Набиев Ф.Х. Фуқаролик жамиятини шакллантиришда ОАВнинг роли. "Зарафшон" 2010 йил, 26 июн, 3-бет

namoyon bo'ladi. Tabiatni o'zlashtirish mehnat orqali amalga oshiriladi. Mehnat ishlab chiqarish munosabatlarini keltirib chiqaradi. Ushbu munosabatlarda tabiat va mehnat insoniy faoliyat predmetiga aylanadi. Ishlab chiqarish odamlarni birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lganligi uchun inson nafaqat tabiiy, balkim ijtimoiy mavjudot deb hisoblanadi. Insonning tabiiy va ijtimoiy mohiyati uni universal mavjudot ekanligini va bu mavjudot egoizm xususiyatlariga ega bo'lib u tabiatan nazoratga muhtojdir. Inson qanchalik buyuk mavjudot bo'lmasin u bari-bir nazoratga muhtoj bo'ladi. Demak, odamlar majmuidan iborat bo'lgan jamiyat ham o'z rivojlanish darajasidan qat'iy nazar ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun nazoratga muhtoj bo'ladi va nazorat bo'lmagan holda ijtimoiy tartibga putur etadi. Jamiyatda ijtimoiy tartibni o'rnini va uni o'rnatish omillarini anglab olish uchun jamiyatni strukturasini tahlil qilish kerak¹.

Insoniyat jamiyati ijtimoiy voqeyliklar majmuidan iborat. Ijtimoiy tartib o'rnatish uchun jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiy voqeyliklar individlarni o'zaro bog'liq harakatining natijasi ekanligini anglab olish kerak. Uzaro bogliq harakatda odamlarning individualligi, ehtiyojlari va manfaatlari xilma-xil bo'lganligi uchun ular urtasida tabiiy ravishda karama-qarshiliklar va ziddiyatlar kelib chiqib boshlaydi. Bunday ziddiyatlar keskinlashib ketmasligi uchun ular o'rtasidagi munosabat tartibga solinib turishi lozim. Buning uchun tartib o'rnatishga xizmat qiladigan ijtimoiy regulyatorlarga rioya qilish nazorat ostida bo'lishi lozim. Davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimigina huquq va axloq normalariga rioya qilishni ta'minlash orqali ijtimoiy tartibni o'rnatishi mumkin. Faqat yuqoridan amalga oshiriladigan davlat nazoratini o'zi ijtimoiy tartibni barqarorligini o'rnatish uchun etarli bo'lmay qoldi. Modomiki, insoniyat jamiyati ijtimoiy voqeyliklar majmuidan iborat ekan, ijtimoiy tartib o'rnatish to'g'risida gapirish uchun eng avvalo, ijtimoiy voqeylik to'g'risida aniq bir tushunchaga ega bo'lish kerak.

¹ Назорат ва унинг илмий назарий асослари. Зарафшон. 2012 й 21 ноябр.

Insoniyat jamiyati ko'pincha ijtimoiy voqeylik majmuining yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Lekin, jamiyatga boshqacha ta'rif berilganda ham ijtimoiy voqeylikni jamiyatning asosiy elementi sifatida gapirishadi. Ijtimoiy voqeylikni o'rganayotib ijtimoiy va tabiat voqeyliklari o'rtasidagi farqni, hamda, ijtimoiy va shaxsiy voqeyliklar o'rtasidagi farqni ko'rsatishga harakat qilinadi. Shu bilan birgalikda ayni bir paytda ijtimoiy voqeylikni ta'rifini berishga va klassifikatsiyasini ishlab chiqishga uriniladi. Jamiyatshunos olimlar ijtimoiy voqeylikni ta'rifini va ularni shaxsiy, tabiiy voqeylik bilan bog'liqligini sotsiologik tafakkur asosida belgilab beradilar. Bunda inson va jamiyatning mohiyati to'g'risidagi o'z tushunchalardan kelib chiqiladi. Ijtimoiy voqeylikni ta'rifini berayotganda va klassifikatsiya qilayotganda ularni shaxsiy voqeyliklar bilan ajralmas bog'liqlikda ekanligidan kelib chiqish va ularni individlarni o'zaro bog'liq harakatlari sifatida o'rganish kerak. Ijtimoiy voqeylikni xarakteri odamlarni harakati va harakatsizligi bilan belgilanadi. Harakatsizlik ya'ni befarqlik ijtimoiy voqeyliklarga salbiy ta'sir etadi, chunki befarqlik bo'lgan joyda nazorat tizimi samarali ishlamaydi. "Befarqlik bo'lgan joyda faol fuqarolik pozitsiyasi bo'lmaydi va natijada nazorat tizimi samarali ishlamaydi".¹ Nazorat tizimi samarali ishlashi uchun uning elementlari o'rtasida bir biriga nisbatan daxldorlik hissi kuchli bo'lishi lozim. Nazorat tizimini elementlari bir birini harakatga keltirishi lozim, buning uchun harakatni boshlanishini topish muhim ahamiyatga ega. Nazorat mexanizmini harakatini boshlanishi bu jamoatchilik nazoratidir. Demak, qachon jamoatchilik o'z nazorat funksiyasini bajarsa ana shunda nazorat mexanizmi harakatga keladi. Nazorat mexanizmini harakatga keltiradigan kuch bu yuksak axloqiylikdir.

Ijtimoiy tartibni o'rnatishni murakkablii shundaki, jamiyatdagi shaxsiy va ijtimoiy voqeylikning birligi individ bilan jamiyat o'rtasida mavjud bo'lgan birlikdan kelib chiqadi, negaki inson ijtimoiy munosabatlar majmuidir va har bir

¹ Набиев Ф.Х. Справедливый социальный порядок - важнейшее условие прогресса общества. "Самаркандский вестник", 2012 год 18 февраля, стр. 2

inson yuqorida ta'kidlaganimizdek tabiatan egoistik xususiyatlarga ega. Ijtimoiy voqeyliklar bir vaqtni o'zida ham shaxsiy, ham ijtimoiy bo'lishi mumkin. Ijtimoiy voqeylik o'z mohiyatiga ko'ra alohida odamlarni o'zaro bog'liq xarakatlari natijasida kelib chiqadi. Qaysikim bu harakat mavjud voqeylikdan va (o'z harakatlarini kelishib oladigan) individlarni o'zidan farq qiladigan biror bir yangi narsani vujudga kelganligini anglatadigan o'zgarishni keltirib chiqaradi. Shunday qilib ijtimoiy voqeyliklar shaxsiy munosabatlardan kelib chiqadi, lekin ular birbirlaridan farq qiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy voqeylikni mohiyatini ma'lum bir o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan individlarning o'zaro bog'liq harakati tashkil qiladi. Individlarni o'zaro bog'liq harakatini ta'sirisiz bunday o'zgarishlar bo'lmaydi. Ijtimoiy voqeylik odamlarni tabiatga, jamiyatga va insonga birgalikdagi ta'siri sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, ijtimoiy voqeylik tabiatda, jamiyatda, individni yurish-turishida va uning o'zida ma'lum bir o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan individlar harakatini o'zaro bog'liq ta'sirining natijasidir. Har qanday voqeylik singari u real dunyoning qismidir. Lekin, shu bilan birgalikda uni o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi va bu xususiyatlar uni mohiyatida ham, shaklida ham namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy voqeylikni muhim elementlari bo'lib: odamlarning xulqini o'zaro bog'liqligi; birgalikdagi harakatning ta'siri va natijada o'zgarishni amalga oshirilishi hisoblanadi. O'zaro harkatsiz bu o'zgarish bo'lishi mumkin emas, bunda bo'ladigan o'zgarishlar alohida odamlarning harakatini o'zaro ta'siri natijasida ham va ijtimoiy guruhlarini o'zaro ta'siri natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ijtimoiy voqelikni xarakteri shaxsiy voqeliklarni xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy voqeylik jamiyatni bir elementi, ya'ni o'z sotsial xarakterini o'zgartiradigan bir elementi bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqeylikni tahlil qilish shaxsiy voqeyliklarni o'rganishni keltirib chiqaradi, chunki ijtimoiy voqeylik shaxsiy voqeyliklardan tashkil topadi. Lekin, ijtimoiy voqeylik individlarning xulqini o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelsa ham individual, shaxsiy xarakterdagi voqeylikdan farq qiladi. Negaki individlarni

harakati to ular o'rtasida aloqa o'rnatilmasa va ularni birgalikdagi harakati tufayli o'zgarish bo'lmasa ijtimoiy voqeylik bo'lmaydi, ya'ni u individual voqeylik bo'lib qoladi. Shunday tarzda ijtimoiy voqeyliklarni qo'shilishi natijasida murakkab ijtimoiy voqeyliklar yuzaga keladi va natijada insoiyat jamiyati murakkablashib boradi. Insoiyat jamiyati tarixi odiylikni murakkablashib borishidan iborat ekan, har qanday murakkab voqeylikni tushunish uchun uni oddiylashtirish lozim bo'ladi. Bunda muammoni ibtidosiga nazar solish, yoki sha muammoni oila misolida ko'rish mumkin.

Individlar o'z harakatlarida o'zlarini shaxs, individuallik sifatida namoyon qilganligi sababli ijtimoiy voqeylik karakteri bilan shaxsni sifatleri o'ziga xosligi o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik bo'ladi, ularning o'zaro ta'siri natijasida muayyan o'zgarishlar yuzaga keladi. Ijtimoiy voqeylikni xarakterini o'rganayotganda bu fakti ya'ni ijtimoiy voqeylik bilan shaxsiy voqeylik o'rtasida bog'liqlik borligini e'tibordan chiqarmaslik kerak. Jamiyatdagi ijtimoiy tartib ijtimoiy voqeyliklardagi tartibdan tashkil topgani kabi ijtimoiy voqeylikdagi tartib shaxsiy voqeylikdagi tartibdan tashkil topadi. Demak, ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun nazorat tizimi asosiy e'tiborni har bir odam o'zida ichki nazoratni shakllantirishga qaratishi lozim. Ichki nazorat har bir odamni o'zida ichki tartibni ta'minlaydi. Bunday tartib oxir oqibatda jamiyatdagi tartibni ta'minlaydi va tartib esa jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Odamda ichki nazorat orqali ichki tartib o'rnatilishi uchun unda axloqiy tarbiya negizida ma'naviyat yuksalgan bo'lishi lozim. Faqat ma'naviyati yuksak inson o'zini o'zi nazorat qilishga qodir bo'ladi, chunki ma'naviyat insonda ichki nazoratni shakllantiradi¹.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib ijtimoiy voqeyliklardagi tartibdan tashkil topar ekan ijtimoiy voqeylik to'g'risida bilimlarni chuqurlashtirish kerak bo'ladi. Ijtimoiy voqeyliklar va ularni turlari to'g'risida xilma-xil fikrlar mavjud. Masalan, eng muhim ijtimoiy voqeylik bu ijtimoiy guruhlar degan fikr mavjud. Bundan tashqari eng muhim ijtimoiy voqeylik ijtimoiy

¹ Сайлов ва назорат. Зарафшон 2012 й. 7 декабр.

munsoabatlar va sotsiologiya birinchi navbatda shularni o'rganish kerak degan fikr mavjud. Ko'pchilik jamiyatshunos olimlar oxirgi vaqtlarda ijtimoiy voqeylikni ikkiga bo'lish kerak degan fikrga borishmoqda. Ularning fikricha ijtimoiy voqeylik ikkita umumiy turga bo'linadi. Birinchi turdagi ijtimoiy voqeyliklar ijtimoiy jarayonlar, deb atalsa, ikkinchi turdagi ijtimoiy voqeyliklar ijtimoiy tuzulma deb ataladi. Bunday tarzda insoniyat tarixining barcha davrlardagi barcha jamiyatlardagi ijtimoiy voqeyliklarni ikkiga bo'lib o'rganish mumkin.

Ularni ijtimoiy voqeylikni ajralmas tarkibiy qismi deb aytish mumkin. Ijtimoiy voqeylik tabiat, jamiyat va odamlar xulqida o'zgarishni keltirib chiqaradigan odamlarning o'zaro faoliyatining natijasi bo'lganligi tufayli o'zaro faoliyat va u keltirib chiqaradigan o'zgarish o'rtasidagi farqni ko'rsatish lozim. Shu ma'noda ijtimoiy jarayon bu odamlarni o'zaro faoliyati, ularni individual harkati, ijtimoiy tuzilma esa, bunday o'zaro faoliyatining natijasidir. Ko'rinib turibdiki ijtimoiy voqeylik odamlarni individual harakatidan iborat. Demak, ijtimoiy voqeylikda tartib bo'lishi uchun har bir odamning harakatida tartib bo'lishi lozim. Jamiyatdagi ijtimoiy tartib ijtimoiy voqeyliklardagi tartibdan tashkil topsa, ijtimoiy voqeylikdan tartib har bir odamdagi tartibdan tashkil topadi. Shuning uchun asosiy e'tibor har bir odamdagi ichki tartibni shakllantirishga qaratilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda har bir odamni o'zi nazoratga muhtoj va nazorat bo'lmasa ichki tartib ta'minlanmaydi.

Ijtimoiy tartib o'rnatishda asosiy e'tibor ijtimoiy jarayonlarga qaratilishi lozim. Ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy voqeylikni sababi bo'lganligi uchun asosiy ijtimoiy voqeylik bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy jarayon – bu odamlar harakatini o'zaro bog'liq ta'siriki, buning natijasida o'zgarishlar bo'ladi, o'zaro ta'sirsiz bunday o'zgarish bo'lolmaydi. O'zaro bog'liq harkat ham jismoniy, ham ruhiy faoliyatdan iborat bo'ladi va harakatda-harakatsizlikda ifodalanadi. Harakatsizlik, befarqlik ham ijtimoiy jarayonga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ko'pincha befarqlik ijtimoiy jarayonga salbiy ta'sir etadi, chunki befarqlik oqibatida ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan huquq va axloq normalariga rioya qilishni ta'minlab

bo'lmaydi. Ijtimoiy jarayonlarda tartib bo'lishi uchun jarayon ishtirokchilarining har biri o'z funktsiyasini va bir-biriga nisbatan daxldorlik hissi bilan yashashi lozim. Demak, befarqlik, harakatsizlik ijtimoiy tartibga putur etkazadi. Insoniyat jamiyatidagi salbiy qadriyatlardan biri aynan ana shu befarqlik kayfiyatidir. Harakatsizlikni keltirib chiqaradigan befarqlikni sababini aniqlash va daxldorlik hissini shakllantirish jamiyatshunos va psixolog olimlarni oldida turgan muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy tartibsizlikni sabablaridan biri, befarqlik oqibatida kelib chiqadigan harakatsizlik ekan, befarqlikni bartaraf qilmay ijtimoiy tartibni o'rnatib bo'lmaydi. Chunki, sabab bor ekan, oqibat bartaraf qilinmasligi allaqonon isbotlangan haqiqatdir. Shuning uchun mashhur alloma Ibn Sino "kasallikni emas, sababini davolash kerak"¹ deb ta'kidlagan. Muammoga sabab va oqibat nuqtai nazaridan yondashish lozim.

Jamiyatshunos olimlar ijtimoiy jarayon tushunchasini ifodlash uchun ko'pincha ijtimoiy munosabatlar terminini ishlatishadi. Lekin, aniqlik kiritish zarurati bo'lganda ijtimoiy jarayon bilan ijtimoiy munosabatlarni bir-biridan farq qilishini ko'rsatish lozim. Ijtimoiy jarayon bilan ijtimoiy munosabatlar bir-biridan xuddi mazmun va shakl singari farq qiladi. Bunday holda ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy jarayonning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida shuni anglatadiki, bir ijtimoiy jarayon har xil shakl yoki ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, asosiy ijtimoiy jarayon bo'lgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish jarayoni turli ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari doirasida namoyon bo'lishi yoki rivojlanishi mumkin. Lekin, bu degani ijtimoiy jarayon bilan ijtimoiy munosabatlar o'rtasida bog'liqlik yo'q degani emas. Aksincha, muayyan jarayonlarga muayyan munosabatlar mos kelishi mumkin, shu bilan birgalikda ular antagonistik qarama-qarshilikda bo'lishi mumkin. Masalan, marksistik ta'limotga ko'ra burjua ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish jarayonini oxirgi antagonistik shakli bo'lib hisoblanadi. Shakl mazmun bilan belgilangani kabi ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy jarayonlar bilan belgilansa ham

¹ Альперович В. Социальная геронтология. Ростов-на-Дону. 1997г. С. 59

ijtimoiy jarayonga aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlar tenglik munosabatlari bo'lishi mumkin. Odamlar ijtimoiy jarayonda bir xil statusga ega bo'lmaganlarida ijtimoiy munosabat jarayonga tenglikni ta'minlash uchun ta'sir etadi. Tenglik munosabatlari xilma-xilma tarzda namoyon bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy jarayonlar tizimli xarakterga ega bo'lib insoniyat jamiyatida ko'plab ijtimoiy jarayonlar bo'ladi va ularni har xil turlarga bo'lish mumkin. Lekin, ko'p hollarda ularni to'rt turga bo'lishadi: maqsadli va stixiyali, moddiy va ma'naviy, hamkorlik va raqobat jarayoni va to'rtinchisi bunyodkorlik va vayronkorlik jarayoni. Ushbu jarayonlar jamiyatda tartibsizlikni keltirib chiqarmasligi uchun tenglik munosabati ta'minlangan bo'lishi lozim. Buning uchun huquq va axloq normalariga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu esa faqat nazorat tizimi orqaligina ta'minlanishi mumkin. Ayniqsa, stixiyali, moddiy, raqobat va vayronkor jarayonlar kuchli nazorat ostida bo'lishi kerak. Chunki, ko'pincha aynan shu jarayonlarda tenglik munosabati ya'ni adolat tamoyili buziladi. Bu esa ijtimoiy tartibga putur etkazadigan norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Norozilik kayfiyati har qanday jamiyat uchun halokatli oqibatlariga olib keladi. Tarixga nazar solsak u yoki bu mamlakat o'z mustaqilligini qo'ldan berib qo'yishga sabab bu adolat tamoyilini buzilishi tufayli norozilik kayfiyatini kelib chiqishi ekanligini ko'rish mumkin. Shuning uchun mustaqillik aziz, lekin adolat undan ham azizroqdir, deb aytishga asos bor. Ijtimoiy jarayonlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar ular keltirib chiqaradigan o'zgarishni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tabiatdagi o'zgarish, insonni o'zi bilan bo'ladigan o'zgarish va jamiyatdagi o'zgarish. Jamiyatda o'zgarish bo'lganda yangi ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy tuzumlar kelib chiqadi¹.

Jamiyatdagi o'zgarish inson bilan bo'ladigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki, jamiyat odamlarning majmuidan iborat. Umuman tabiat, jamiyat va inson bilan bo'ladigan o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liq. Inson bilan bo'gan o'zgarishlar, aytalik, insonning ongini paydo bo'lishi bilan u birlasha boshlaydi va

1

natijada tabiatga ta'sir etish imkoniyati kuchayadi. Oldin inson termachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik ishlab chiqarish bilan shug'ullana boshlaydi. Ya'ni inson bilan bo'lgan o'zgarish yangi jarayon ya'ni ishlab chiqarish jarayonini keltirib chiqaradi. Tabiat, jamiyat va inson bilan bo'ladigan o'zgarishlar yangi ijtimoiy voqeyliklarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy voqeylikni ikki turi mavjud bo'lgani uchun tabiat, jamiyat va inson bilan bo'ladigan o'zgarishlar yangi ijtimoiy jarayonlar bilan birga yangi ijtimoiy tuzulmalarni ham keltirib chiqaradi¹. Buni tushunish uchun ijtimoiy tuzulma nima ekanligini anglab olish kerak. Ijtimoiy tuzilma ijtimoiy voqeylikni ikkinchi muhim turi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy tuzilmani ko'pincha ijtimoiy jarayon natijasida kelib chiqadigan nisbatan tenglashtirilgan, kristallashgan holat deb ta'riflashadi. U ijtimoiy jarayonlarning yaxlit to'plamidan iborat bo'lib boshqa yaxlitliklardan farq qiladi. Chunki, ular boshqa jarayondan tashkil topgan yaxlitlik bo'lib hisoblanadi. Masalan, termachilik jarayonida odamlar ijtimoiy tuzilmasi ibtidoiy to'da shaklida bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy tuzilmani yangi shakli ibtidoiy jamoa, urug' kelib chiqadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy tuzulmalar ham takomillashib va natijada ularni tartibga solish uchun nazorat qilish ham murakkablashib boradi. Shuning uchun nazorat tizimi ham zamonga qarab takomillashib boradi. Modomiki, ijtimoiy tuzulma ijtimoiy jarayonning natijasi ekan, demak, bu tuzulmalarni mohiyatini anglab olish uchun ularni vujudga kelish va shakllanish jarayonida o'rganish kerak. Chunki, shunday yondashuvda ularni boshqa ijtimoiy voqeyliklar bilan aloqasini va yaxlit jamiyat bilan sababiy bog'liqligini topish mumkin. Masalan, ilk ijtimoiy tuzulma bo'lgan ibtidoiy to'da odamlarni tabiat sirlari oldidagi ojizligi, shafqatsiz tabiat qonuniyatlaridan va umuman yashash uchun kurash qiyinchiliklaridan qo'rqish yoki taxdidni his qilib yashashlari tufayli kelib chiqqan.

Ijtimoiy tuzilmalar ma'lum bir taxdidlardan o'zini ximoya qilish uchun shakllangan va hayotni murakkablashib borishi natijasida ijtimoiy tuzulmalar ham

¹Isljmov Z.M. Ozbekiston

ko'payib, murakkablashib borgan. Ijtimoiy jarayonlar kabi jamiyatda mavjud bo'lgan ko'plab ijtimoiy tuzulmalarni ham belgilariga qarab turlarga bo'lish mumkin. Lekin, sotsiologiya ijtimoiy tuzulmalarni ijtimoiy jarayonlar bilan aloqasini ko'rsatishga qaratilganligidan kelib chiqib ijtimoiy tuzulmalarni murakkab ijtimoiy jarayonlarga va ijtimoiy guruhlariga bo'lish mumkin. Murakkab ijtimoiy jarayonlar bu birgalikdagi natijaga olib keladigan o'zaro bog'liq ijtimoiy jarayonlarning majmuidir. Masalan, siyosiy ijtimoiy tuzilma bo'lgan davlat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning majmuining natijasidir. Ijtimoiy guruhlar ijtimoiy jarayon (yoki jarayonlar) bilan bog'liq bo'lgan va o'zlarini o'zaro harkati bilan shu ijtimoiy jarayonni amalga oshiradigan odamlar guruhi bo'lib hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy guruh bo'lgan ibtidoiy to'da birgalikda hayot faoliyatini amalga oshiradigan, termachilik bilan yoki ovchilik bilan shug'ullanadigan odamlar guruhidir. Ibtidoiy to'da barcha yoshdagi erkak va ayollardan iborat bo'lgan bir necha o'n kishidan iborat bo'lgan guruhdir. Ibtidoiy to'da ijtimoiy guruh sifatida ijtimoiy tuzilmani kam rivojlangan oddiy shakli bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarda ibtidoiy guruhi a'zolari teng bo'lishgan.

Jamiyatshunos olimlar ijtimoiy tuzulmani qanday pozitsiyadan va qanday o'rganish kerakligi to'g'risida har xil fikrlarni berishadi. Ko'pchilik jamiyatshunos olimlar ijtimoiy tuzulmani ijtimoiy jarayonlarni natijasi va maxsuli sifatida o'rganishi kerak degan nuqtai-nazarni to'g'ri deb hisoblashmoqda. Chunki jarayonlar ijtimoiy tuzulmaga aylangandan keyingina tadqiqot uchun sezilarli va namoyon bo'ladi. Bundan tashqari ijtimoiy tuzulmani ijtimoiy voqelikni vujudga kelish jarayonida o'rganish kerak albatta. Ijtimoiy tuzulma bo'lgan ibtidoiy to'dani ijtimoiy jarayonlarni natijasi va mahsuli sifatida o'rganganda ibtidoiy to'da termachilik jarayoni va tashqi tahdiddan himoyalaniş jarayonini natijasi ekanligini ko'rish mumkin. Ijtimoiy tuzulma odamga o'z hayot faoliyatini davom ettirish va tahdiddan himoyalaniş zaruriyati natijasida kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda tahdiddan qo'rquv odamlarni birlashishga undab ijtimoiy

tuzulmalarni keltirib chiqaradi. Hayot murakkablashib borgan sari yangi-yangi ijtimoiy tuzulmalar paydo bo'ladi. Masalan, siyosiy tuzulma bo'lgan davlat ham odamlar o'rtasidagi munosabati tartibga solish extiyoji natijasida yuzaga kelgan. Agar odamlar o'rtasida munosabat tartibga solinmasa odamlar bir birini qirg'in qilish xavfi kelib chiqishi mumkin. Demak, davlat ham qo'rquv natijasida kelib chiqqan bo'ladi. Lekin, tarix shundan guvohlik beradiki faqat davlatni o'zi ijtimoiy tartibni o'rnatishi qodir emas ekan. Shuning uchun o'sha qo'rquv fuqarolik jamiyatini keltirib chiqaradi.

Davlat va jamiyat birgalikda ijtimoiy tartibni o'rnatishi mumkin ekan. Insoniyat jamiyatini tarkibiy qismlarini murakkabligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy tartibni o'rnatishda davlat va jamiyatni ijtimoiy sherikchiligini taqozo etadi. Shuning uchun 2010 yil 12 noyabrda Parlamentning qo'shma majlisida bayon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida" ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini takomillashtirish uchun "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi qonun qabul qilish taklif qilindi¹. Demak, o'zi shusiz ham murakkab bo'lgan xilma xil manfaatlardan iborat bo'lgan insoniyat jamiyati, tarixiy jarayonda yanada murakkablashib boradi. Modomiki, jamiyat murakkablashib borar ekan, nazorat tizimi ham o'shanga munosib tarzda takomillashib borishi maqsadga muvofiqdir. Jamiyat nazoratga muhtoj ekan, demak jamiyat murakkablashib borishi barobarida ijtimoiy nazorat ham takomillashib borishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa insoniyat jamiyatini bilim va ma'naviyati yuksalib borishi muhim ahamiyat kasb etadi va eng avvalo siyosiy va huquqiy madaniyat yuksalishi lozim, chunki nazorat mexanizmi ishlab turishi uchun aynan ana shu bilimlar kerak bo'ladi.

¹ Karimov I. A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida" O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ro'zasi. Xalq so'zi gazetasi, 2010 yil 13 noyabr.-№ 220.

I. 2 -§ NAZORAT TIZIMINING TARKIBI VA UNING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatish nazorat tizimiga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Lekin nazorat tizimi hamma vaqt ham ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bola olmaydi. Nazorat tizimi ijtimoiy tartibni o'rnatishi uchun u mukammal bo'lishi lozim. Nazorat tizimini mukammal qilish uchun, eng avvalo, uni tahlil qilish kerak bo'ladi. Nazorat tizimini tahlil qilish uchun u qanday elementlardan iborat ekanligini va ushbu elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish kerak. Ana shunda bosh maqsadimiz bo'lgan ozod va obod farovon jamiyat qurishning muhim sharti bu adolatli ijtimoiy tartibni barqarorligi ta'minlash mumkin bo'ladi. Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi barcha vaqtlarda eng murakkab va eng dolzarb mavzu bo'lib kelgan va bugungi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunga kelib insoniyat ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun faqat yuqoridan amalga oshiriladigan davlat nazorati etarli emasligini anglab oldi. Shuning uchun mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida ijtimoiy tartibni o'rnatish yo'lida davlat bilan birgalikda jamiyat nazoratini ham tashkil qilish vazifasi belgilab berildi. Jamiyat o'z nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun uning siyosiy va huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi lozim¹. Mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifani ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi fuqarolik jamiyati institutlarini qullab-quvvatlashga qaratilgan Parlament komissiyasi nazoratga doir bilimni targ'ib qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirmoqda. Bugungi kunda ushbu loyihalar asosida

¹ Ғойибназаров Ш. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш йўли. “Ўзбекистон”, Тошкент. 2011 йил.

respublikamizda o'qituvchi va ziyoliylar o'rtasida nazoratga boir bilimni targ'ib qiladigan tadbirlar o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlar nazorat tizimi va uning vositalari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish omillarini topishga qaratilgan.

Tadbirda umuman nazorat, nazorat tizimi va nazorat mexanizmi tushunchalarini mazmun mohiyatini anglab olishga, hamda, davlat nazoratini, jamiyat nazoratini, siyosiy partiyalarni nazoratini nazorat tizimidagi o'rnini o'rganish va uni yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbir ishtirokchilari mamlakatda ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimi shakllanishi lozimligini ta'kidladilar. **Qachon va qaerda huquq va axloq normalariga rioya qilish borasida davlat va jamiyat o'rtasida hamkorlik va sheriklik o'rnatilsa, o'sha vaqtda va o'sha joyda adolatli ijtimoiy tartib o'rnatilishi mumkin bo'ladi¹.** Mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida taklif qilingan "O'zbekistonda jamoatchilik nazorati to'g'risidagi" va "Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi" qonunlar davlat va jamiyatning nazorat jarayonidagi hamkorligi va sherikligiga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, nazorat tizimini samarali ishlashiga to'siq bo'lgan sabablar ichida jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyati zamon talabi darajasidan ozroq orqada qolayotganligi va aholini ayrim qismida befarqlik kayfiyati mavjudligi ana shunday sabablar sifatida qayd qilinmoqda. Ushbu sabablarni bartaraf qilish ma'lum bir vaqtni taqozo qiladigan va evolyutsion tarzda amalga oshiriladigan jarayon ekanligi ta'kidlandi. Chunki, jamiyatni siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish va befarqlik kayfiyatidan xalos bo'lib daxldorlik hissini shakllantirish insonni bilimini va ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq. Bilimni rivojlantirish ta'lim tizimiga bog'liq, ma'naviyatni rivojlantirish tarbiya tizimiga bog'liq evolyutsion jarayondir. Shuning uchun ta'lim va tarbiya tizimida odamlarda daxldorlik hissini shakllantiradigan bilim va g'oyalarni berish choralari ko'rish

1

lozim. Buning uchun oliy ta'lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan "Ijtimoiy nazorat" o'quv kursini joriy qilish taklif qilindi. Bundan tashqari befarqlik kayfiyatini pasaytirib daxldorlik hissini kuchaytirishga xizmat qiladigan "Motiv" mavzuidagi teleko'rsatuvni televideniada joriy qilish kerakligi ta'kidlandi.

Insoniyat jamiyatining rivojlanish evolyutsiyasiga nazar solsak oddiylikni murakkablashib borayotganiligini guvohi bo'lamiz. Hayot qanchalik murakkablashib borsa, unda jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatish shunchalik murakkablashib boradi. Insoniyat jamiyatini ilk davrlarida hayot oddiy bo'lib odamlar o'rtasidagi munosabatlar asosan fazoviy ehtiyoj bo'lgan oziq-ovqat, kiyim- kechak va boshpanaga bo'lgan ehtiyojni qondirish borasida bo'lgan. Bu davrlarda odamlar o'rtasidagi munosabatlarda tartibni ta'minlash uchun alohida ijtimoiy regulyatorlarga ehtiyoj kuchli bo'lmagan. Shuning uchun ishtimoiy tartib asosan stixiyali tarzda qondirilib kelingan. Asta-sekinlik bilan insoniyat jamiyati rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan regulyatorlarga ehtiyoj kuchayib borgan. Natijada uzoq evolyutsion jarayonda insoniyat jamiyatida ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan ikkita ijtimoiy regulyator paydo bo'ldi. Ijtimoiy regulyatorlardan biri xuquq bo'lsa, ikkinchisi axloqdir. Bugungi kunda ana shu huquq va axloq ijtimoiy tartibni o'rnatadigan regulyatorlar bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun odamlar o'zaro munosabatda o'z harakatlarini tartibga solishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ular o'zlarini erkinliklarini cheklab borishlari zaruriyati paydo bo'ladi. Insoniyatning yovvoyilikdan varvarlikka, varvarlikdan sivilizatsiyaga o'tishi odamlarni erkini cheklab borishi bilan bog'liq holda kechgan. Boshqacha qilib aytganda inson hayvondan farq qilishi uchun u mutlaq erkin bo'lishi kerak emas. Inson mutlaq erkin bo'lsa, u hayvondan farq qilmay qoladi, chunki hayvonlarda o'z harakatini cheklaydigan regulyatorlar yo'q va ular o'rtasidagi munosabatlarda tartib stixiyali ravishda ta'minlanadi. Masalan, ibtidoiy jamiyat davrida odamlar o'rtasidagi jinsiy

munosabatlar biror bir normalar orqali tartibga solinmagan promiskuitet tartibiga asoslangan. Bunda jinsiy munosabatlarda hech qanday cheklov bo'lmagan, barcha yoshdagi erkak va ayollar o'rtasida jinsiy munosabatlar bo'lib turgan. Insoniy jamiyatning rivojlanib borishi jarayonida jinsiy munosabatlarda cheklovlar o'rnatilib bordi va nikoh instituti shakllandi. Xuddi shunday ijtimoiy hayotni barcha sohalarida odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida ma'lum bir normalarga rioya qilib o'z harakatlarini cheklash tartibi shakllanib bordi.

Insoniyat jamiyatida tartib o'rnatilishi uchun faqat odam o'z harakatini o'zi cheklab borishi etarli bo'lmay qoldi. Buning uchun odam harakati tashqaridan nazorat qilinishi zaruriyati paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda odam o'z hulqini tartibga solishi, erkini cheklashi uchun faqat ichki nazorat etarli emas, buning uchun tashqi nazorat ham kerak. Nazorat shaklan yuqoridan va quyidan, mazmunan esa ichki va tashqi bo'ladi. Ichki nazorat deganda odam o'zini o'zi nazorat qilishi tushunilsa, tashqi nazorat deganda odam hulqini davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinishi tushuniladi. Yuqoridan nazorat deganda davlat nazorati tushunilsa, quyidan deganda jamiyat nazorati tushuniladi. Qachon mamlakatda nazoratning shakli va mazmuni mavjud bo'lsa, o'shanda ijtimoiy tartibni barqarorligini ta'minlashga qodir bo'lgan nazorat tizimi shakllanadi. Insoniyat jamiyati shunchalik murakkabki faqat yuqoridan bo'lgan nazorat, yoki faqat quyidan bo'lgan jamiyat nazorati, yoki faqat ichki nazorat ijtimoiy tartibni o'rnatib olmaydi. Buning uchun nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizm shakllangan bo'lishi kerak. Inson shunday mavjudotki u kim bo'lishi va kaerda ishlashidan kat'iy nazar nazorat ostida bo'lishi kerak, chunki insonda tabiatan egoizm hususiyatlari mavjud. egoizm esa, nazoratni takozo etadi. Nazorat bo'lmagan joyda odam o'zining egoistik manfaatlarini quliga aylanib qoladi va natijada u huquq va axloq normalarini buzishga moyil bo'ladi. Shuning uchun barcha odamlar nazorat ostida bo'lishlari kerak, hatto eng yuqori lvozimdagi mansabdor shaxs ham. Shuning uchun ijtimoiy tartib o'rnatilishi faqat davlat nazoartga emas, balki nazorat tizimiga bog'liq. Agar biror bir kishi huquq

va axloq normalarini buzsa, uni jazosini dalat emas, balki jamiyat berishi kerak, chunki agar faqat davlat jazolashi kerak bo'lsa, jinoyat jazosi qolib ketishi mumkin bo'ladi. Chunki yuqoridan kelgan davlat vakili bilan kelishib olish mumkin, yoki pora berib sotib olish mumkin, lekin tizim bilan bilan kelishib yoki tizimga pora berib bo'lmaydi.

Insoniyat jamiyati tabiatan nazoratga muhtoj, chunki, har bir odamda tabiatan egoizm bor va jamiyat odamlar majmuidan iborat. Egoistik hususiyatlarga ega bo'lgan odamlar majmuidan iborat bo'lgan insoniyat jamiyatida tartib o'rnatish mukammoli eng murakkab va eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy tartibni barqarorligi jamiyatni rivojlanish darajasiga, odamlarni demokratiya sharoitida yashay olish qobiliyatiga va fuqarolik jamiyatini kuchliliga bog'liqdir. Shuning uchun O'zbekiston respublikasida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptsiyasi asosida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayoni chuqurlashtirib borilmoqda. O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrda bayon qilingan mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida ham asosiy e'tibor demokratlashtirish va liberallashtirishni takomillashtirish orqali ijtimoiy tartibni barqarorlashtirish masalalariga qaratilgan¹. Demokratlashtirish va liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki, demokratlashtirish va liberallashtirish jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish bilan bog'liqdir. Siyosiy va huquqiy madaniyati yuksak odamda fuqarolik pozitsiyasi kuchli bo'ladi. Fuqarolik pozitsiyasi esa, fuqarolik jamiyatini kuchli qilishning muhim shartidir. Fuqarolik jamiyatini kuchliligi ijtimoiy tartibni barqarorligini ta'minlaydigan muhim kafolatdir.

¹ Karimov I. A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida" O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ro'zasi. Xalq so'zi gazetasi, 2010 yil 13 noyabr.-№ 220.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” asosida ishlab chiqilgan mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasi jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun demokratiya sharoitida yashay oladigan siyosiy va huquqiy madaniyati yuksak avlod shakllanishi lozim. Ana shunday avlodni shakllanishi fuqarolik jamiyatini kuchli qilishga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyatini kuchliligi esa, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni barqarorligishini ta'minlaydi. Ijtimoiy tartibni barqarorligini ta'milash muammosi barcha vaqtlarda, barcha davlat rahbarlarini va donishmandalrni o'ylantirib kelgan eng murakkab muammo bo'lib kelgan. Demak, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi fuqarolik jamiyatini kuchliliga bog'liq ekan asosiy e'tibor fuqarolik jamiyatini kuchli qilishga qaratilishi lozim¹.

Mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirish vazifalari belgilab berilgan. Kontseptsyani mazmun-mohiyatini tushunish uchun mamlakat davlat va jamiyatdan iborat ekanligini hamda ularni funktsiyalarini anglab olish lozim. Davlatni asosiy funktsiyasi xilma- xil mnafaatlardan iborat bo'lgan odamlar jamiyatini murosaga solib, kelishtirib va jipslashtirib taraqqiyot sari etaklashdan iborat. Jamiyatning asosiy funktsiyasi taraqqiyot sari borishda huquq va axloq narmalariga rioya qilishni nazorat qilib ijtimoiy tartibni o'rnatishda davlatga sherik bulish. Bugungi kunda bizda kuchli davlat va nisbatan kuchsiz jamiyat mavjud. Shuning uchun jamiyat o'zini nazorat funktsiyasini to'liq bajarishi muammo bo'lib qolmoqda. Muammo shundaki jamiyatni kuchli qilish faqat evolyutsion jarayon tarzida amalga oshirilishi mumkin. Chunki, kuchli fuqarolik jamiyati deganda kuchli fuqarolik jamiyati institutlari tushuniladi. Kuchli fuqarolik jamiyati institutlari deganda esa, kuchli fuqaro tushuniladi. Kuchli fuqaro deganda bilim va

¹ Набиев Ф.Х. Юсак маънавият ва етук сиёсий маданият “Маҳалла”. 2010 йил, 29 апрел

ma'naviyati yuksak bo'lgan hamda fuqarolik pozitsiyasi shaklanagan fuqaro tushuniladi.

Fuqaroni kuchli qilish faqat evolyutsion tarzda amalga oshirilishi mumkin, chunki, insonni bilim va ma'naviyatini oshirish faqat evolyutsion tarzda amalga oshiriladi. Obrazli qilib aytganda insonni dunyoqarashini o'zgartirish va rivojlantirish bir loyqalangan daryo singariki uni tinishi ma'lum bir vaqtni toqoza etadi. Fuqaroni kuchli qilish deganda o'zini nazorat funksiyasini oshirishga qodir bo'lgan va shunga yarasha bilim va ma'naviyatga ega bulgan inson tushuniladi. Bunday insonni shakllanishi ta'lim va tarbiya tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ta'lim tarbiya tizimida fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradigan va rivojlantiradigan bilim va ma'naviyatni yuksaltirishga qaratish lozim. Bu esa ta'lim va tarbiya tizimida ma'lum bir chora-tadbirlarni kurishni toqozo etadi.

Jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishda nazoratga doir bilim alohida ahamiyatga ega, chunki, nazoratga doir bilim siyosiy va huquqiy bilimlarni qamrab oladi. Boshqacha qilib aytganda nazoratga doir bilimni targ'ib qilish barobarida jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyati oshib boradi. O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi huzuridagi Parlament komissiyasi va fuqarolik jamiyati institutlarini ko'llab-quvvatlash jamg'armasi "Ijtimoiy nazoratga doir bilimni targ'ib qilish" loyihasini moliyalashtirishi ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Chunki, nazoratga doir bilim nazaorat tizimini samarali ishlashini va nazorat mexanizmini harakatga kelishini ta'minlaydigan muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda nazoratga doir bilimni targ'ib qilish, ertangi kunda nazorat funktsiyasini amalga oshirishga qodir bo'lgan avlodni shakllantiradi. Bunday avlod o'z nazorat funktsiyasini amalga oshirib, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatib, bosh maqsadimiz bo'lgan farovon jamiyatni qurishga qodir bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishda nazorat tizimini va uni etakchisini, liderini roli muhim ahamiyatga ega. Isoniyat jamiyati taraqqiyotini va ijtimoiy tartibni ta'minlashda liderni buyukligi muhim omillardan

biri bo'lib hisoblanadi. Insoniyat jamiyati shunday yaralganki unda doimo boshqaruvchiga, rahbarga, liderga extiyoj va zaruriyat bo'lgan. U odamlarni birlashtirib umumiy maqsad sari etaklgan. Buning uchun boshqalardan kuchli bo'lishi kerak bo'lgan. Oldin jismonan kuchli bo'lgan odam jamoani boshqargan. Asta-sekinlik bilan liderlik sifatlar ko'payib borgan va hozirgi kunga kelib lider nafaqat jismonan sog'lom, balki aqlan etuk va ma`nan yuksak bo'lishi lozim. Ana shu uch sifatga ega bo'lgan odam jamiyatni boshqarsa intilayotgan maqsadga etish mumkin bo'ladi. Lider jamiyatni umumiy maqsad sari etaklashi uchun u to'g'ri yo'lni topa olishi kerak. Buning uchun unga bilim kerak bo'ladi, chunki bilim oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi. Bilim ezgu maqsadlarga xizmat qilishi uchun ma`naviyat yuksak bo'lishi kerak, agar ma`naviyat qashshoq bo'lsa, bilim yovuzlikka xizmat qiladi. Chunki, ma`naviyati qashshoq odam o'z nafsini quli bo'ladi. Lider o'z bilim va ma`naviyatidan foydalana olishi uchun eng avvalo, jismonan sog'lom bo'lishi kerak. Jismonan sog'lomlik barkamollikni asosi bo'lib hisoblanadi. Demak, jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma`nan yuksak insongina ijtimoiy tartibni barqarorligini ta`minlab jamiyatni taraqqiyot sari etaklashga qodir bo'ladi deb aytish mumkin¹.

Insoniyat jamiyatining ilk davrlarida ibtidoiy to'dani boshqarish uchun liderdan, eng muhimi jismonan kuchlilik va chaqqonlik talab qilingan. Chunki, ibtidoiy davrda hamma teng bo'lgan va siyosat bo'lmagan faqat tashqi dushmandan himoyalaniish zaruriyati yoki boshqa biror zaruriyat paydo bo'lganda to'dani eng kuchli va chaqqon a`zosi liderlik qilgan. Ibtidoiy davrda hayot oddiy va sodda bo'lganligi uchun uni boshqarish ham osonroq bo'lgan. Uzoq tarixiy jarayonda xayot murakkablashib borishi natijasida va ayniqsa, manfaatlarni xilma-xilligi o'sib borish, tengsizlikni kelib chiqishi natijasida jamiyatni boshqarish ham murakkablashib borgan. Natijada, jamiyatni boshqarish uchun faqat jismonan kuchlilik etarli bo'lmay qoladi. Chunki, xayot murakkablashib oldindan ko'ra

¹ Набиев Ф.Х. Ўзбекистон сиёсий партияларининг дастурий хужжатларида жамоатчилик назоратини таъминлаш ва такомиллаштириш.// Фуқаролик жамияти. 2011 йил 2 сон

bilmagan muammolar paydo bo'lganda yoki boshqa biror og'ir vaziyat yuzaga kelganda faqat jismonan kuchlilik etarli bo'lmay bilimga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi. Bilim insonga oldindan ko'ra bilish imkonini berib xatodan asraydi. Lekin hozirgi kunga kelib ma'naviyatga ehtiyoj va zaruriyat ortib bormoqda, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek ma'naviyat qashshoq bo'lsa bilim yovuzlikka xizmat qiladi yoki egoistik manfaatlarga xizmat qilib o'zgalar manfaatini unutib qo'yadi. Natijada adolatsizlik kelib chiqadi va buning oqibatida jamiyat parokanda bo'ladi va mamlakat o'z mustaqilligini qo'ldan beradi, chunki, adolat tamoyili mustaqillikdan ham muhimroqdir. O'zbekiston lideri faoliyatini tahlil qilganda unda jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma'nan yuksakligini ko'rish mumkin va bunga bir qancha misollar keltirish mumkin. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida shakllanayotgan nazorat tizimini huquqiy asoslarini yuzaga keltirishda jamiyat lideri tashabbuskor bo'lmoqda.

Ijtimoiy sherikchilik va hamkorlik to'g'risida gapirishdan oldin uni mazmun-mohiyatini anglab olish lozim. Ijtimoiy sheriklik va hamkorlik deganda jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni sivilizatsiyalashgan tizimini tushunish lozim. Aniqroq qilib aytganda ijtimoiy sheriklik va hamkorlik – jamiyat hayotini ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy sohalaridagi dolzarb muammolari bo'yicha xodimlar, ish beruvchilar, tadbirkorlar, davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari manfaatlarini kelishtirish, murosaga solish va himoya qilishga asoslangan ijtimoiy mehnat sohasidagi munosabatlarni sivilizatsiyalashgan ya'ni madaniylashgan tizimidir. Sivilizatsiyalashgan munosabat deganda bir tomon ikkinchi tomonni manfaatini o'ylash, e'tiborga olish va o'z ehtiyojlarini qondirishda ma'lum bir me'yorlarni buzmasdan harakat qilish yoki chegaradan chiqmaslik tushunilishi lozim. Bundan tashqari o'zaro munosabatda bag'rikenglik, o'zarotushunish, etikaga rioya qilish va ularga asoslangan holda harakat qilish kerak, hamda, har bir inson o'z manfaatini to'g'ri ifodalashi lozim. Manfa'atni to'g'ri ifodalash deganda insonning jamiyatdagi ahamiyati bilan mavqei o'rtasidagi munosiblik tushuniladi ya'ni insonni o'zini

jamiyatdagi bajarayotgan funksiyalaridan kelib o'zini manfaatini ifodalashi lozim. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik va hamkorlik nafaqat ijtimoiy mehnat sohasidagi, balkim, ancha kengroq tushunilmoqda, ya'ni sotsial davlat shakllantirish jarayoni munosabatlaridagi ijtimoiy sheriklik va hamkorlik sifatida tushunilmoqda.

Ijtimoiy sheriklik va hamkorlikda asosiy e'tibor jamiyatda tartib o'rnatadigan huquq va ahloqqa rioya qilishni nazorat qilishga qaratilishi lozim. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yilning 27 yanvarida Parlamentning qo'shma majlisida ma'ruza qilib nazaorat masalasiga alohida e'tibor qaratib, «Boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahallaning vazifalarini kengaytirib borish, davlat ijtimoiy dasturlarining hayotga tadbiiq etilishi bo'yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarini fuqaorlarni o'zini-o'zi boshqarish idoralari bilan mustahkam hamkorligini ta'minlash bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak»¹ deb ta'kidladilar. Nazorat to'g'risidagi fikrlarni davom ettirib muhtaram Prezidentimiz 2010 yil 12 noyabrda Parlamentning qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida nazorat borasidagi hamkorlik to'g'risidagi g'oyalarini davom ettirib davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy sheriklikni o'rnatish kerakligi to'g'risidagi fikrni ilgari surdilar. Ushbu maqsadda "O'zbekistonda jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun" va "Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi" qonunlarini qabul qilish to'g'risida takliflar berildi. Bu qonunlarni qabul qilinishi davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va fuqarolik jamiyati instutlari o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi uchun har ikkala tomon ham hamkorlikdan manfaaddor bo'lishlari lozim. Buning uchun har ikkala tomonning umumiy maqsadi bo'lishi va shu maqsadga erishish yo'lida hamkorlikka ehtiyoj sezishi lozim. Umumiy maqsadimiz bo'lgan ozod, obod va farovon jamiyat qurishning asosiy sharti bu jamiyatda ijtimoiy tartib

1

o'rnatilganligidir. Jamiyatdagi tartib yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir oiladagi tartibdan tashkil topadi. Jamiyatda tartib o'rnatilishi uchun esa, ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan huquq va axloqqa rioya qilishni ta'minlaydigan nazorat tizimi shakllangan bo'lishi lozim. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini nazorati ushbu nazorat tizimini asosiy elementlari bo'lib hisoblanadi. Ana shu nazorat tizimini samarali ishlashi ularning elementlari o'rtasida ya'ni davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida ijtimoiy sheriklik va hamkorlikni taqozo etadi.

Mahalliy hokimiyat organlarini nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatini boshqa institutlari bilan hamkorligi bo'yicha taklif-tavsiya ishlab chiqish maqsadida Samarqand viloyatida fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti (FJUI) mintaqaviy axborot tahlil markazida 2010 yilning 9 aprelida «Siyosiy partiya va deputatlar korpusini nazorat tizimidagi o'rni» mavzuidagi seminar, 2010 yil 13 mayda «Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarini o'rni» mavzuida seminar, 2010 yil 1 - iyunda «Vakillik hokimiyati mahalliy organlari tomonidan amaldagi qonunchilik ijrosini ta'minlanishi» mavzuidagi davra suhbat, 2010 yil 19 iyulda «Barcha darajadagi deputatlarni fuqarolik pozitsiyasi hamda shaxsiy javobgarligini oshirish» mavzuida davra suhbat, 2010 yil 8 sentyabrda «Mahalliy va boshlang'ich partiya tashkilotlarining samarali ishini shakllantirish va tashkil etish masalalari» mavzuida seminar va 2010 yil 24 sentyabrdan STV da «Nazorat tizimini takomillashtirishda nazoratga doir bilimni o'rni» mavzuida tok-shou davra suhbat o'tkazildi. Ushbu mavzulardagi tadbirlar muntazam ravishda FJSHMMI Samarqand xududiy bo'linmasi tomonidan o'tkazilib kelinmoqda. Masalan, 2013yil 11 yanvarda saylov jarayonida nazoratni kuchaytirishga qaratilgan "O'zbekistonda fuqarolarni saylov huquqi erkinligini ta'minlash masalalari" mavzuida, 2013 yil 16 yanvarida "Ijtimoiy nazoratni samaradorligini oshirishda hamkorlik va sherikliklikni o'rni" mavzuida seminar o'tkazildi.

O'tkazilgan tadbirlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, davlat va fuqarolik jamiyati nazorat vositalari o'rtasidagi xamkorlik hali etarli darajada yo'lga

qo'yilmagan bo'lib endigiga shakllanmoqda. Ijtimoiy nazorat borasida sheriklik va hamkorlikni samarali bo'lishi uchun har ikkala tomon teng bo'lishi lozim. Aks holda tomonlarni biri ikkinchi tomonga tobe bo'lib qolishi mumkin. Huquqiy jihatdan har ikkala tomon teng bo'lsa ham amalda davlat institutlari mavqei ancha yuqori va kuchlidir. Ular o'rtasida teng huquqli hamkorlikni shakllantirish fuqarolik jamiyati institutlarini kuchli bo'lishini talab etadi. SHuning uchun muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov 2010 yil 12 noyabrda Parlamentning qo'shma majlisida asosiy e'tiborni parlamentni rolini oshirishga qaratdilar. CHunki, hozirgi kunda qonun va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabatda ijroiya hokimiyatning mavqei ancha yuqori. Fuqarolik jamiyati institutlarining kuchliligi esa, kuchli fuqaro bo'lishiga bog'liq. Kuchli fuqaroni shakllanishi jamiyat siyosiy madaniyatini o'sishi orqali evolyutsion yo'l bilan ta'minlanishi mumkin. SHuning uchun jamiyat rivojlanishini hozirgi bosqichida ijtimoiy sheriklik va hamkorlikni fuqarolik jamiyati institutlarini o'rtasida mustahkamlash lozim. Masalan, siyosiy partiyalar bilan nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasida yoki fuqarolik jamiyati institutlari bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi ijtimoiy nazorat borasidagi hamkorlikni rivojlantirish lozim.

Ijtimoiy sheriklik va hamkorlik teng huquqli sub'ektlarni munosabat tizimi sifatida qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilishda huquqiy va ahloqiy tamoyillarga asoslanadi. **Ijtimoiy sheriklik va hamkorlik munosabatini mazmuni ijtimoiy adolat va ijtimoiy birdamlik muammolariga bo'lgan munosabatdir.** Boshqacha qilib aytganda jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy birdamlikni shakllantirish borasida hamkorlik qilish ushbu jarayonni mazmunidir. Ijtimoiy sheriklik va hamkorlik huquq va axloqqa rioya qilishni nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, har ikkala tomon ham huquq va ahloqni ishlab turishidan manfaatdorligiga asoslanadi. CHunki, xar ikkala tomon uchun ijtimoiy tartib bir xil zarurdir.

Nazorat borasida ijtimoiy sheriklik va hamkorlikni amalga oshirish uchun jamiyatda nazoratga doir bilim yuqori bo'lishi lozim. Nazoratga doir bilim yuqori

bo'lishi uchun esa, ta'lim tizimida nazoratga doir bilim kengroq o'rganilishi va yoritilishi lozim. Buning uchun oliy ta'lim tizimi o'quv dasturiga «Ijtimoiy nazorat» nomli o'quv kursini kiritish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda, aniqroq aytganda 2012 o'quv yilida SamDUning Ijtimoiy ish yo'nalishida ushbu o'quv kursi joriy qilingan. endigi maqsad ushbu kursni faqat bir yo'nalishda va faqat SamDUda emas, balki butun oliy ta'lim tizimga joriy qilish va "Ijtimoiy nazorat" kafedrasini ochishdan iborat bo'lishi lozim. Chunki, ijtimoiy nazoratga doir bilimni rivojlantirish ushbu mavzudagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Ijtimoiy nazorat muammolarini ilmiy tadqiq qilish va uning natijasida olingan bilimlarni talaba yoshlarga etkazish ilmiy-pedagogik jarayonni uyg'unlashtirib ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Nazoratga doir bilimi kuchli bo'lgan avlod nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlashga qodir bo'ladi.

Jamiyatda nazoratga doir bilim qanchalik yuqori bo'lsa nazorat tizimi shunchalik kuchli bo'ladi. Kuchli nazorat tizimi esa jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatadi. Hozirgi kunda nazorat tizimini samarali qilishga asosiy to'siq bu odamlardagi befarqlik kayfiyatidir. Befarqlik bo'lgan joyda nazorat tizimi ishlamaydi. Odamlarni befarqlikdan xalos qilib ularda daxldorlik hissini shakllantirish uchun ma'naviyat yuksalishi lozim. Chunki ma'naviyat irodani kuchli qilib mas'uliyatni oshiradi. Mas'uliyat esa insonni nazorat faoliyatini va umuman insoniy faoliyatni samarali qiluvchi omildir. Ma'naviyatni yuksaltirish uchun muhtaram Prezidentimizni «YUksak ma'naviyat – engilmas kuch» asaridagi g'oyalarni odamlarni ongu qalbiga singdirish lozim. Buning uchun nafaqat ta'lim tizimida balkim, ommaviy axborot vositalarida va eng avvalo televedeniyada ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan ko'rsatuvlarni joriy qilish lozim. Ma'naviyat odamni to'g'ri yo'ldan yurishga undashini hisobga olsak «MOTIV» nomli ko'rsatuvni televedeniyada joriy qilinishi odamlarni to'g'ri yo'ldan yurishga undaydigan motivlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy sherikchilik va hamkorlik jamiyatda tartib o'rnatadigan nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim. Ijtimoiy tartib qonunga rioya qilish orqali o'rnatilishini va bu eng avvalo sud hokimiyatiga bog'liqligini inobatga olib sud hokimiyatini hukmini adolatligini ta'minlaydigan nazorat jarayonida ijtimoiy sherikchilik va hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Sud hokimiyatini adolatli hukmini kafolatlaridan biri advakatura tizimi ekan, ana shu advakatura bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasida ijtimoiy sherikchilik va hamkorlik o'rnatilishi lozim. Bunday hamkorlik sud hokimiyatining adolatligini kafolatini mustahkamlaydi. Sud hokimiyatini adolatligini kafolatlaridan yana biri bu sud hokimiyatini ma'naviyati orqali shaklladigan vijdon, iymon, kabi tushunchalar bilan ta'minlanadigan ichki nazorat bo'lsa, ikkinchisi jamiyat ma'naviyati orqali shakllanadigan jamoatchilik nazoratidir. SHuning uchun muhtaram Prezidentimiz o'zlarining chiqishlaridan birida sud'ya hukm chiqarganda, qonunga va vijdoniga asoslanishi lozim deb ta'kidlaganlar. Bu boradagi muammolardan biri sud'ya mustaqilligi bilan bog'liq, chunki sud'ya mustaqil degani nazoratsiz degan tushunchani keltirib chiqarmoqda. Sud hokimiyatni bir shaxsni, bir tashkilotni nazoratida mustaqil, lekin jamiyat nazoratida mustaqil emas.

Ijtimoiy sherikchilik to'g'risidagi qonun mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasidan kelib chiqadi. Kontseptsiyani mohiyati jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishdan iborat. Kontseptsiyani mohiyati nazorat mexanizmini shakllantirishdan iborat ekan, taklif qilinayotgan qonunlar ham aynan ana shu nazorat mexanizmni kuchaytirishga xizmat qilishi lozim.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviyatga va uning natijasida oilaga etarli darajada e'tibor qilmaslik oilani global inqirozi kelib chiqdi. Bu inqiroz ayniqsa, G'arb mamlakatlarida yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Bunday holat bizlarda ham ro'y bermasligi uchun oilaga bo'lgan e'tibor kuchayib borishi

lozim. Buning uchun oilani ijtimoiy hamkorlik asosida mustahkamlash kerak. Mamlakat boyligi, tartibi oiladagi boylik va tartibdan tashkil topadi. SHuning uchun **ijtimoiy hamkorlik asosiy e`tiborni oilaga qaratishi lozim, ya`ni ijtimoiy hamkorlikni ob`ekti oila bo`lishi kerak.** Davlat ham, jamiyat ham oilani mustahkamlashdan bir xil manfaatdordir. Oilani sog`lomlashtirish va mustahkamlash umumiy maqsad bo`lib xisoblanadi, chunki, oilani mustahkamlash jamiyatni mustahkamlash demakdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jamiyat taraqqiyoti tartibga, tartib esa nazoratga bog`liq ekan, nazorat tizimi tarkibidagi vositalar o`rtasida sheriklik va hamkorlik aynan ana shu nazorat borasida bo`lishi va nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Nazorat borasida ijtimoiy sheriklik va hamkorlik jamiyat ma`naviyati bilan belgilanishini inobatga olsak, asosiy e`tibor jamiyat ma`naviyatini yuksaltirishga qaratilib bu borada yuqorida ta`kidlaganimizdek muhtaram Prezidentimizning «YUksak ma`naviyat-engilmas kuch» asaridagi g`oyalarini odamlarning ongu qalbiga singdirishga qaratilishi lozim. Ma`naviyatni yuksalishi odamlarda ichki nazoratni ko`chaytirib, nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta`minlaydigan mexanizmni asosiy elementini tashkil etadi. Ma`naviyat orqali shakllanadigan ichki nazorat oilani global inqirozdan olib chiqishda ham muhim rol o`ynaydi. Mamlakatni boyligi va tartibi oiladagi boylik va tartibdan tashkil topishini unutmasligimiz kerak.

Nazorat tizimi elementlari o`rtasidagi bog`liqlik zamonamiz mohiyati bo`lgan «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari» kontseptsiyasi mohiyatidan kelib chiqadi. Bizda hozir kuchli davlat va nisbatan kuchsiz jamiyat bor. Ular o`rtasida o`zaro bog`liqlik, hamkorlik va sheriklik bo`lishi uchun nafaqat davlat, balki jamiyat ham kuchli bo`lishi lozim. Jamiyatning asosiy vazifasi nazorat ekanligidan kelib chiqib, nazoratni kuchli qilishni muhim sharti bo`lgan nazoratga doir bilimni keng targ`ib qilish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Qachon jamiyatni nazoratga doir bilimi kuchli

bo'lsa, o'shanda davlat va jamiyat nazorat vositalaridan iborat bo'lgan nazorat mexanizmi elementlari o'rtasida bog'liqlik kuchayadi.

II. NAZORAT MEXANIZMINI MUHIM ELEMENTI BO'LGAN ICHKI NAZORATNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYATNING O'RNI

II.1-§ Nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati nazoratini kuchaytirish omillari

Zamonamiz mohiyati bo'lgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasi fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan muntazam ravishda o'rganib borishni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyatini asosiy funktsiyasi nazorat funktsiyasi ekanligini inobatga olsak nazorat tizimida fuqarolik jamiyati institutlarini urnini o'rganish hozirgi kunimizning dolzarb mavzui ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Insoniyat jamiyati mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun, eng avvalo, unda ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lishi lozim. Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish esa va bosh maqsadimiz bo'lgan ozod va obod jamiyat qurish, jamiyatda mukammal nazorat tizimini shakllanganligiga bog'liq. Barcha vaqtlarda donishmandlar qanday qilsak jamiyatda tartib o'rnatiladi degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. Buyuk donishmandlar ya'ni Platon, Aristotel, Farobiy va boshqalar o'z asarlarida ana shu savolga javob olishga intilishgan. Aytaylik, Platon o'zining «Davlat» nomli asarida jamiyatda tartib o'rnatish uchun jamiyatni intellektual elita boshqarishi kerak deb yozadi. Boshqacha qilib aytganda jamiyatni bilim boshqarishi kerak. Agar jamiyatni bilim boshqarmasa o'z-o'zidan jamiyatni pul boshqara boshlaydi. Pul boshqargan jamiyatda tartib bo'lmaydi va bunday jamiyat oxir-oqibatda barbod bo'ladi. Xo'sh, nima uchun jamiyatda tartib bo'lishi uchun jamiyatni bilim boshqarishi kerak? Chunki bilim insonga oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi, oldindan ko'ra bilgan odam xatodan o'zini asraydi. Mashhur faylasuf O.Kont: «bilishdan maqsad oldindan ko'ra bilish, oldindan ko'ra bilish esa harakat qilish uchun»¹ deb bejiz yozib qoldirmagan.

Aloxida ongli ijtimoiy faoliyat sohasi bo'lgan fan insonga jamiyatda tartib o'rnatish uchun ikkita ijtimoiy regulyatorni, ya'ni huquq va axloqni o'ylab chiqish imkonini berdi. Ular odamlar o'rtasidagi munosabatni murosaga solish va kelishtirish orqali jamiyatda tartib o'rnatadi. Agar odamlar o'rtasidagi munosabat huquq va axloq vositasida murosaga solinmasa, jamiyat son-sanoqsiz ziddiyat va qarama-qarshiliklar va urushlardan iborat bo'lib bunday jamiyat oxir-oqibatda

¹ Мухаев Р.Т. Политология. Москва. 1997 й., 393-бет.

xalok bo'ladi. Chunki, odamlarning manfaatlari, qiziqishlari xilma-xil bo'lib, ularni qondirish jarayonida tabiiy ravishda ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu ziddiyatlar o'z vaqtida murosaga solinmasa jamiyatda ijtimoiy - siyosiy vziyat keskinlashib ketadi va oxir oqibatda jamiyat parokandalikka uchraydi. Jamiyatda tartib o'rnatadigan ijtimoiy regulyatorlar, ya'ni huquq va axloq o'z 'vazifasini bajarishi uchun, asosiy e'tibor ana shu ijtimoiy regulyatorni ishlab turishi va unga rioya qilishni amalda ta'minlashga qaratilishi kerak bo'ladi. Jamiyatni ilm boshqargan taqdirdagina huquq va axloqqa rioya qilish ta'minlanishi mumkin. Chunki, unga rioya qilish uchun mukammal nazorat tizimi shakllangan bo'lishi kerak. Bunday nazorat tizimini shakllanishi ham ilmiy asosda ta'minlanishi mumkin. Jamiyatda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, u huquq va axloqqa rioya qilishni amalda ta'minlashga qodir bo'lsin. Buning uchun nazorat tizimining tarkibiy qismi davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lishi lozim. Davlat va jamiyat nazorat borasida hamkor va sherik bo'lishlari zamon talabi bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida nazorat tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yil 27 yanvarda Oliy Majlisning qo'shma majlisida «Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimiz» mavzuida ma'ruza qilib asosiy e'tiborni ijroiya hokimiyat ustidan nazorat tizimini takomillashtirishga qaratib «Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari – Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa – bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat tomonidan markazda, hokimlar tomonidan esa joylarda qanday bajarayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatishdan iboratdir»¹ deb ta'kidladilar. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga intilayotganligidan dalolat beradi. SHu o'rinda jahon moliyaviy inqirozini O'zbekistonda nisbatan yumshoqroq o'tayotganligini sababi

¹ Халқ сўзи. 2010 йил 27-январ, 3-бет.

davlat boshlg'ininig ilmiy salohiyatining natijasi ekanligini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Muhtaram Prezidentimizni jahon moliyaviy inqiroziga bag'ishlangan asarlarini birinchi qismi «Jahon moliyaviy inqirozini O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uni oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar» deb nomlanishi ham muallifni ilmiy salohiyatini darajasini yaqqol ko'rsatib turibdi. Boshqacha qilib aytganda asar muallifi iqtisodiy-moliyaviy hayotga ilmiy asosda yondashganligi tufayli oldindan ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi ilmiy fan yutuqlariga asoslanib jamiyatni boshqarishni taqozo etadi. Ijtimoiy hayotni ilmiy asosda boshqarish jamiyatdagi voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish imkoniyatini berib xato qilmasdan to'g'ri harakat qilishni ta'minlaydi. eng muhimi jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydi. Chunki, ilm jamiyat taraqqiyotining muhim sharti tartib ekanligini va tartib o'rnatish uchun esa nazorat tizimi uzilishsiz ishlab turishi kerakligini anglab olish imkoniyatini beradi. Ilmiy bor odam nazoratsiz jamiyatda tartib o'rnatib bo'lmasligi biladi. Xo'sh, nazorat o'zi nima? Nazorat deganda jamiyatda tartib o'rnatadigan mexanizm faoliyati tushuniladi. Bu mexanizm jamiyatda huquq va axloq asosida qabul qilingan cheklovlariga, shartlarga rioya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday shartlarga, cheklovlariga rioya qilishni buzulishi ijtimoiy tizimni faoliyat olib borishiga zarar etkazadi va uni keyingi mavjud bo'lishini gumon qilib quyadi. Demak, jamiyat mavjud bo'lishi tartibga, tartib esa, nazoratga bog'liq ekan.

Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini asosiy ob'ektlari ijtimoiy regulyatorlar ya'ni huquq va axloq bo'lib hisoblanadi. Nazorat tizimini takomillashtirish nazorat va nazorat tizimi degan tushunchalarni chuqurroq anglab olishni talab etadi. Nazorat mazmuniga ko'ra ichki va tashqi, shakliga ko'ra esa yuqoridan va quyidan bo'ladi. Ichki nazorat deganda har bir odam o'zini xulqini o'zi nazorat qilishni anglatadi va bu ma'naviyat orqali

ta'minlanadi. Ma'naviyati yuksak odamda ichki nazorat kuchli bo'ladi. SHu o'rinda yuksak ma'naviyat engilmas kuch ekanligini anglab olish mumkin. Buning uchun oldin boshqa bir savolni javobini berish kerak. YA'ni, qanday hokimiyat eng kuchli hokimiyat? degan savolni. eng kuchli hokimiyat bu insonning o'z ustidan bo'lgan hokimiyatidir. Hokimiyat bu kuch, kuch esa ma'naviyat orqali shakllanadi. Ma'naviyat inson irodasini kuchli qilib ichki nazoratni mustahkamlaydi. Ma'naviyati yuksak odamda o'zini nazorat qilish imkoniyati kuchli bo'ladi. SHuning uchun ham ma'naviyat – engilmas kuch deb ta'rif berilgan. Nazorat tizimi deganda o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha nazorat vositalarning yaxlitligini tushunish lozim. Agar shu tizimdagi biror-bir element yoki mexanizm ishlamasa bu tizimni buzulishiga yoki ishlamasligiga olib keladi. Hozirgi kunda respublikamizda uchta nazorat tizimining asosiy vositasi shakllanmoqda. Bular deputatlar korpusi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalardir. Ular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yaxlit tizimni tashkil qiladi. Ushbu nazorat vositalarini ishlashi, eng avvalo quyida nazoratning mavjudligi bilan belgilanadi.

Davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lib fuqarolik jamiyati institutlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari ichida asosiy o'rinni siyosiy partiyalar egallaydi. Agar quyida, ya'ni boshlang'ich partiya tashkilotlarida, mahallalarda nazorat funktsiyasi amalga oshirilmasa boshqa bo'g'inlarda ham nazorat zaiflasha boradi. Bu boradagi asosiy muammo odamlardagi befarqlik kayfiyatidir. Demak, odamlarda daxldorlik hissini shakllanishi nazorat tizimini takomillashuvining muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Buning uchun respublikamizda barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Aytaylik 2008 yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarni rolini kuchaytirish to'g'risida» gi Konstitutsiyaviy Qonunning kuchga kirishi siyosiy partiyalarni nazorat funktsiyasini amalga oshirishda huquqiy asos bo'lib hisoblanadi. Nazorat asosiy e'tiborni qonunga va axloq normalariga rioya qilishga

qaratishi lozim. Qaerda qonun buzilishi, axloq buzilishi holatlari namoyon bo'lsa, deputatlar, siyosiy partiyalar va mahallalar o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. Qonunchilik palatasidagi deputatlar fraktsiyasi ijroiya hokimiyatni qonunga rioya qilishini va mahalliy kengashdagi deputatlar guruhi esa joylardagi ijro hokimiyatini qonunga rioya qilishini qat'iy nazorat qilib borishlari lozim.

Demokratik jamiyatda nazorat tizimini ahamiyatini demokratiya mohiyatidan kelib chiqib anglash lozim. Xush demokratiyani mohiyati nimadan iborat? Ma'lumki, demokratiya asosan ikki elementni yaxlitligidan iborat, birinchisi, hokimiyat xalq tomonidan shakllanishi, ikkinchisi, hokimiyat xalq tomonidan nazorat qilinishidir. Demak, demokratiya – bu hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishini va nazorat qilinishini anglatadi. Agar xalq hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etsayu nazoratda ishtirok etmasa bu oxlokratiya yoki oligarxiyaga aylanib ketadi. Agar xalq nazorat funksiyasini amalga oshirishda ishtirok etmasa, bu uni siyosiy madaniyatini pastligidan dalolat beradi. Jamiyatda demokratiya sharoitida yashay oladigan, fuqarolik pozitsiyasi shakllangan va siyosiy madaniyati yuksak shaxslar bo'lgan taqdirdagina demokratiya amal qiladi. Aks holda demokratiya namoyon bo'lmaydi. SHuning uchun mashhur Aristotel o'zini «Siyosat» nomli asarida demokratiyaga salbiy baho berib, uni boshqaruvni yomon shakli deb yozib qoldirgan. CHunki Aristotel zamonida ya'ni bundan qariyb 2,4 ming yil oldin odamlarni siyosiy madaniyati past bo'lgan. Lekin Aristotelning so'zlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Demak, hozirgi kunda asosiy e'tiborni aholining siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratish lozim. “Hokimiyat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish murakkab jarayon bo'lib, mavjud siyosiy institutlar faoliyatini demokratlashtirish bilan bog'liqdir”.¹

Ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim rol' o'ynaydigan siyosiy madaniyatni yuksaltirish fan va ta'limda siyosiy bilimlarni o'rganish va targ'ib

¹ Foiyбназаров III. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш йўли. “Ўзбекистон”, Тошкент. 2011 йил, 33-бет

qilish bilan birga siyosiy partiyalarning o'z elektoratini siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan siyosiy o'quv tadbirlari bilan ham belgilanadi. Bu borada tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zLiDePni siyosiy ta'lim markazi faoliyatini namuna qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu partiyaning siyosiy ta'lim markazi faoliyatini boshqa partiyalar o'z elektorati o'rtasida ham amalga oshirishlari lozim. Ana shunda aholini siyosiy madaniyatini oshirish jarayoni ancha jadallashadi. Albatta, odamlarni siyosiy madaniyatini oshirish ma'lum bir vaqtni taqozo etadigan evolyutsion jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu borada shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. SHuning uchun O'zbekiston taraqqiyotni evolyutsion rivojlanish yo'lini tanlab demokratiyani umumjahon e'tirof etgan tamoyillarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda halq hokimiyatini qaror toptirib bormoqda.

Demokratiya tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan nazorat tizimini va uning tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini muhimligi shundaki, unda xalq o'zini nazorati orqali demokratiyani amalga oshiradi. Inson tabiatan nazoratga muhtoj ayniqsa, jamiyatni boshqarayotgan mansabdor shaxslar, deputatlar va barcha darajadagi rahbarlar xalqni nazorati ostida bo'lishlari kerak. Bu demokratiyani muhim talabidir. CHunki barcha odamlarda tabiatan egoizm bor va nazoratsizlik oqibatida odam faqat o'zini manfaatlarini quliga aylanib qolishi mumkin. Xalqni orasidan ya'ni pastdan chiqqan rahbar yoki deputat xoxlaydimi, xoxlamaydimi u xalqdan ajralib qoladi. SHuning uchun uni xalq pastdan nazorat qilib turishi kerak bo'ladi. Demokratiya quyida namoyon bo'ladi. YUqoriga chiqqan sari demokratiya pasayib oligarxiya kuchayib boradi. Mamlakatda davlat boshlig'i ya'ni Prezidentdan tashqari barcha darajadagi rahbarlar nazorat va tanqid ostida bo'lishlari lozim. Nima uchun davlat boshlig'i nazoratdan mustasno bo'lishi kerak? CHunki, nazoratdan maqsad jamiyatda tartib o'rnatish bo'lib hisoblanadi. Jamiyatda tartib o'rnatishdan eng manfaatdor shaxs bu Prezidentdir. SHuning uchun Prezidentni nazoratga qilishga zarurat yo'q. Ushbu fikrni oila misolida ko'rganda hech bir oila boshlig'i o'z oilasida tartibsizlikni xohlamasligini va oilada

tartib o'rnatishdan eng manfaatdor bo'lib, oila boshlig'i hisoblanishini anglab olish mumkin. Mamlakatni katta kengaygan oila deb olsak, uni boshlig'i tartib o'rnatishdan eng manfaatdor inson ekanligini tushunib olish mumkin. Demak davlat rahbarini nazorat qilishga zaruriyat yo'q deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlari ichida siyosiy partiyalar muhim rol' o'ynaydilar. Nazorat tizimining eng muhim elementi bu quyidagi boshlang'ich partiya tashkilotlarini va umuman boshlang'ich tashkilotlarning nazoratidir. Agar shu erda nazorat bo'lmasa nazorat tizimining yuqori bosqichlari nazorat bo'lmaydi yoki zaif bo'ladi. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarini boshlang'ich tashkilotlarini kuchliligi va faolligini taqozo etadi. Zamonamiz mohiyati bo'lgan «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari» kontseptsiyasining mazmun-mohiyati ham shuni anglatadi. SHu munosabat bilan ushbu kontseptsyani mohiyatini anglab olish lozim. Hozircha bizda kuchli davlat va nisbatan kuchsiz jamiyat mavjud bo'lganligi uchun yuqoridan bo'lgan nazorat kuchli va quyidan bo'lgan nazorat kuchsiz amalga oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarini markaziy apparati kuchli va boshlang'ich tashkilotlari nisbatan kuchsiz bo'lganligi uchun ham nazorat shunga monand bo'lmoqda. Nazoratni quyida kuchli qilishga harakat qilish lozim, chunki mamlakatdagi tartib har bir quyidagi jamoadagi tartibdan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqning boyligi eng avvalo har bir oilaning to'kinchiligi va boyligidan tashkil topshini, xalqni erkinligi esa har bir odamni erkinligidan tashkil topshini tushunib etishgan. Sobiq sovetlar zamonida davlat xususiy mulkni bekor qilishda chegaradan chiqib ketdi. Oldin ular xususiy mulkni pomeshek va kapitalistlardan olishdi. Bu o'sha zamonda hukmronlik qilgan kommunistik mafkuraga asosan to'g'ri edi. Lekin, keyinchalik ular xususiy mulkni, ya'ni erni dehqondan, zavodlarni ishchilardan, intellektual mulkni ziyolilardan tortib olishdi. Bu esa katta xato edi, chunki bu odamni har taraflama

ya'ni total' tarzda davlatdan tobe bo'lishiga olib keldi. Barcha narsani davlat belgilab beradigan bo'ldi, ya'ni kim qaerda ishlashi kerak, kim qancha ish haqqi olishi kerak, qaerda va hatto kim bilan yashashi kerak, barchasini davlat belgilab berardi. Natijada inson totalitar tuzum rahbarlari orzu qilganidek gigant davlat mexanizmini vintchasiga, murvatchasiga aylanib borar edi. Xatto adolatsiz majburlov va davlat ekspluatatsiyasining ob'ektiga aylana boshladi. Lekin inson ongli mavjudot sifatida vintcha bo'lishni xoxlamas edi. U ongli, erkin fikrlaydigan jonli mavjudot bo'lishni xoxlar edi va bu odam turli shakllarda davlatdan o'ch ola boshlaydi. YA'ni, o'zini bexafsala, beg'am mehnati, ichklikbozligi, o'g'riligi, ijtimoiy befarqligi bilan o'ch olar edi. Jamiyatni barbod bo'lishiga olib kelgan turg'unlik va inqirozning sabablari ana shularda edi. Boshqacha qilib aytganda odamlardagi befarqlik kayfiyati mavjud tuzumdan noroziligi edi, faqat bu norozilik irratsional tarzda ifodalangan edi.

Ijtimoiy tartib barqaror bo'lishi uchun jamiyat davlatni qonunga rioya qilishini nazorat qilib borishi lozim. Kuchli davlat va kuchsiz fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolik jamiyati davlatni nazorat qila olmaydi. Vaholanki, fuqarolik jamiyatini asosiy vazifalaridan biri bu davlat ustidan nazoratni amalga oshirib hokimiyatni hukmronlikka aylanib ketishini oldini olishdan iborat. Sobiq sovetlar zamonida fuqarolik jamiyati o'zini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslaridan mahrum bo'lgan edi. Xususiy mulkni bekor qilinishi bilan fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosi yo'q qilingan edi. Kommunistik mafkura esa ham siyosiy, ham ma'naviy sohada o'z hukmronligini o'rnatib, siyosiy va ma'naviy erkinlikni bo'g'ib qo'ygan edi. Faqat mustaqillik sharofati bilan fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asos shakllana boshlandi. Fuqarolik jamiyati odamga erkin fikrlash, boshqacha qilib aytganda qo'rquvni bartaraf qilib, erkin fikrlash imkonini beradi. erkin fikrlagan odamda yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Sobiq sovetlar zamonida erkin fikrlash uchun sharoit bo'lmaganligi sababli yangi progressiv g'oyalar va umuman ilmiy kashfiyotlar

deyarli bo'lmagan. SHuning uchun o'sha zamonlarda mamlakatimizdan dunyo tan olgan kuchli olimlar deyarli etishib chiqmagan.

Bugungi kunimizning mohiyati bo'lgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyili siyosiy hayotda fuqarolik jamiyati institutlarini va eng avvalo siyosiy partiyalar faoliyatini, ayniqsa boshlang'ich partiya tashkilotlari faolligini taqozo etadi. CHunki, demokratiya pastda namoyon bo'ladi, yuqoriga chiqqan sari demokratiya pasayib oligarxiya kuchayib boradi. Demak, demokratiya quyi tashkilotlarni faolligini talab qiladi. Boshlang'ich partiya tashkilotlarining o'rni va roli fuqarolik jamiyatini rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Kuchli fuqarolik jamiyatlarida boshlang'ich partiya tashkilotlari kuchli bo'ladi. Siyosiy partiyalar ham davlatga, ham fuqarolik jamiyatiga dahldor bo'lgan ijtimoiy institut bo'lib hisoblanadi. Siyosiy partiyalar elitesining kuchliligi davlatning kuchligining alomati bo'lsa, boshlang'ich partiya tashkilotlarining kuchliligi fuqarolik jamiyatining kuchliligining belgisidir. Demokratiya quyi yuqorini nazorat qilinishini taqozo etadi. CHunki, yuqoriga chiqish bilan odam pastdan ajralib qola boshlaydi. SHuning uchun quyi doimo yuqorini nazorat qilib borishi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini tashkil qiladi. YUqori ham, quyi ham qonun oldida teng bo'lib hisoblanadi.

SHu narsan anglash lozimki, hech bir inson nazorat tizimini ishlashidan chetda qolmasligi kerak va hech bir inson ushbu tizimni ishlamasligidan yoki uni uzilishidan manfaatdor bo'lmasligi kerak. Xatto manfaatdor bo'la olmaydi deb aytish to'g'riroqdir. CHunki nazorat tizimi ishlamaydigan joyda hech kim baxtli bo'la olmaydi. Baxtlilikning eng muhim sharti bu insonda qo'rquvsiz erkin yashash hissidir. Bunday hissiyot faqat tartib o'rnatilgan jamiyatda ya'ni qonunga rioya qilish amalda ta'minlangan jamiyatda bo'lishi mumkin. Bu esa kuchli nazorat tizimi orqali ta'minlanishi mumkin. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishda bizda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, agar biror-bir mansabdor shaxs

qonunni buzsa, uni jazosini yuqori lavozimda o'tirgan shaxs berishi kerak emas, balki tizim berish kerakligi ta'kidlaganlar¹.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni ta'minlaydigan nazorat tizimini va uni tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini samarali ishlashi to'g'risida gapirishdan oldin nazorat tushunchasiga aniqlik kiritish va uni ta'rifini berish lozim. Boshqacha qilib aytganda nima nazorat qilinishi kerakligini aniq bilish kerak. Qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Qonun va axloq ijtimoiy hayotni barcha sohalarida amal qiladi. Qaysi sohada yoki qaysi jarayondagi qonunga rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Albatta, barcha jarayonlarda qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Lekin eng muhimi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayonida qonun va axloqqa rioya qilish qat'iy nazorat ostiga olinishi lozim. Ushbu jarayondagi qonun buzilishi holatlari boshqa ko'plab ijtimoiy muammolarni sababi bo'lib hisoblanadi. Mashhur Ibn Sino o'zining asarlarida kasallikni emas, sababini davolash kerak deb yozib qoldirgan. Sabab bartaraf qilinmasa, oqibat bartaraf qilinmasligi allaqachonlar isbotlangan haqiqatdir. Barcha sohada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishda bilim va mas'uliyat asosiy mezon bo'lishini nazorat qilish kerak. Agar kadrlarni tanlash tanish-bilishchilik, oshna-og'aynigarchilik va poraxo'rlik asosida amalga oshirilsa, bunday jamiyatda nazorat tizimi samarali ishlamaydi. Kadrlar masalasi muhimligi to'g'risida muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov bir necha marotaba viloyat Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalarida men uchun eng og'ir muammo kadrlar muammosi deb bejizga ta'kidlamaganlar. Nazorat tizimi jamiyatda tartib o'rnatishning muhim sharti ekan, siyosiy partiyalar va ularning deputatlar guruhlarini asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtirishga qaratishlari lozim.

Fuqarolik jamiyati institutlari va eng avvalo, siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurash nazorat tizimining mukammal loyihalarini ishlab chiqarish borasida bo'lishi kerak. Bu borada «Adolat» sotsial demokratiya partiyasi boshqalarga namuna

¹ Халқ сўзи. 2005 йил. 8-феврал. 3-бет.

bo'lishi kerak. Chunki, partiyaning asosiy maqsadi jamiyatda qonun ustuvorligi va jazoni muqarrarligini amalda ta'minlab, adolatni qaror toptirishdan iborat. Demak, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan qonun ustuvorligini ta'minlashda «Adolat» sotsial demokratik partiyasi hal qiluvchi rol o'ynashi lozim. Partiyaviy nashrlar nazorat tizimini takomillashtirish masalalarini qizg'in muhokama qiladigan minbarga aylanishi lozim. Umuman ommaviy axborot vositalari asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtiruvchi masalaga qaratish kerak. Siyosiy partiyalar ommaviy axborot vositalari orqali huquq va axloq normalariga rioya qilishni nazorat qilib borishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatilishi kuchli nazorat tizimini tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini shakllanganligiga bog'liq. Kuchli nazorat tizimini shakllanishi esa jamiyatni siyosiy madaniyatiga, odamlardagi dahldorlik hissiga, kuchli fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolik pozitsiyasi shakllangan kuchli shaxslarni mavjudligiga bog'liq. Bularni barchasi muhayyo bo'lishi uchun jamiyatni bilim va ma'naviyat boshqarishi kerak. Mamlakatimizda jamiyatni bilim va ma'naviyat asosida boshqarish uchun barcha siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslar yaratilgan. Jamiyatni bilim va ma'naviyat asosida boshqarish ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini shakllantira oladi. Bu borada oliy ta'lim tizimida nazoratga doir bilimni berish mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki har qanday bilim eng avvalo ta'lim tizimida shakllanadi.

Nazorat tizimining va uning tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini asosiy elementi bo'lib siyosiy partiyalar hisoblanadi. Siyosiy partiyalari kuchli bo'lgan jamiyatda nazorat tizimi ham kuchli bo'ladi. eng muhimi boshlang'ich partiyalarni kuchli bo'lishiga erishish lozim. Chunki jamiyatdagi tartib har bir jamoadagi tartibdan tashkil topadi. Har bir jamoadagi tartibni o'rnatilishi esa siyosiy partiyalarning boshlang'ich partiyalarini kuchliligiga bog'liq. Demak asosiy e'tibor siyosiy partiyalarning boshlang'ich

tashkilotlarini kuchaytirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdi. Siyosiy partiyalarni kuchayishi uchun odamlarda siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji shakllanishi lozim. Buning uchun esa jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyati yuqori bo'lishi kerak. Ana shunda respublikamizda jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omil, ya'ni adolatli ijtimoiy tartib barqarorligi ta'minlanadi va bosh maqsadimiz bo'lgan ozod, obod farovon jamiyat qurish mumkin bo'ladi. Bu borada asosiy e'tibor jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

2.2. Nazorat mexanizmidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan daxldorlik hissini shakllantirishda ma'naviyatni o'rni

Zamonamiz mohiyati bo'lgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» kontsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish» kontsepsiyasi **adolatli ijtimoiy tartibni** o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishga qaratilgan. Adolatli ijtimoiy tartib jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lib


hisoblanadi. Ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi insoniyat tarixidagi eng murakkab va eng dolzarb muammo bo'lib qelmoqda. Barcha vaqtlarda davlat rahbarlari va donishmandlar **qanday qilsak jamiyatda tartib bo'ladi?** degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrda Parlamentning qo'shma majlisida bayon qilingan **mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasi** ham o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ana shu savolga javob topish yo'lida ulkan hissa bo'lib hisoblanadi. Jamiyatda tartib bo'lishi uchun nazorat mexanizmini barqaror ishlashini ta'minlashga qodir bo'lgan fuqarolik jamiyati shakllangan bo'lishi lozim. Chunki, fuqarolik jamiyati nazorati nazorat tizimini tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllanishi murakkab evolyutsion jarayon bo'lib, bu maqsadga erishish odamlarning ongu - tafakkuriga demokratik va liberal g'oyalarni singdirilishiga, eng avvalo xalqimizning ma'naviy yuksalishiga bog'liqdir. Insoniyat jamiyatida ma'naviyatni o'rni to'g'risida gapirib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ma'naviyatga shunday ta'rif berdi: **«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarini mezonidir»¹**. YUksak ma'naviyatga ega bo'lgan jamiyat ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'ladi. Jamiyat ma'naviyati har bir odam ma'naviyatidan tashkil topganidek jamiyatdagi tartib har bir odamdagi tartibdan tashkil topadi. Ma'naviyat insonni o'z ustidan bo'lgan hokimiyatini shakllantiradi va tartibga soladi. Mamlakatni modernizatsiyalash har bir fuqaroni modernizatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Fuqaroni modernizatsiyalash deganda bilim va ma'naviyatini zamon talablariga moslashtirishni tushunish lozim. Zamon talabi demokratiyadan, demokratiya esa nazoratdan iborat. Jamiyatdagi nazorat tizimi har bir odamdagi

¹ Каримов.И.А Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент 2008 йил. 19 бет.

ichki nazoratdan shakllanadi va ichki nazorat qanchalik kuchli bo'lsa, nazorat tizimi shunchalik kuchli bo'ladi va nazorat mexanizmi shunchalik barqaror bo'ladi.

Oltita ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan **mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiasini strukturasini** quyidagicha tasavvur qilish mumkin:





Ushbu kontsepsiyani asosiy maqsadi mamlakatda ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan **mexanizmni** shakllantirishdan iborat. Mamlakat davlat va jamiyatdan iborat bo'lganligi uchun mamlakatni modernizatsiyalash strukturasini ikkiga bo'lish to'g'ri bo'ladi. Bosh maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, farovon jamiyat qurish uchun, eng avvalo, ijtimoiy tartib o'rnatishga mas'ul bo'lgan davlat va jamiyatning rivojlanish darajasi zamon talablariga mos bo'lishi kerak. Zamon talabi esa kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishdan iborat. Hozircha bizda kuchli davlat va nisbatan kuchsiz jamiyat bor. Mamlakatni modernizatsiyalash ya'ni davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirish ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan **nazorat mexanizmini shakllantirishga** qaratilgan.

Bu tushunarli bo'lishi uchun, eng avvalo, ijtimoiy tartib nima ekanligini anglab olish kerak. **Ijtimoiy tartib bu huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlanaganlik holatidir.** Insoniyat jamiyatida tartib bo'lishi uchun ikkita ijtimoiy regulyator ya'ni huquq va axloq o'ylab chiqilgan. Odamlar majmuidan iborat bo'lgan insoniyat jamiyatida ehtiyojlarni qondirish, manfaatlarni ifodalash jarayonida ular o'rtasida tabiiy ravishda qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar kelib chiqadi. Agar ana shu ziddiyatli munosabatlar huquq va axloq me'yorlari orqali murosaga solinib tartibga olinmasa insoniyat jamiyati son-sanoqsiz ziddiyatlar va kurashlardan iborat bo'ladi va oxir oqibatda halok bo'ladi. SHuning uchun insonni harakati ostida anglamagan holda o'zini o'zi qirg'in qilish xavfi yashirinib yotadi degan fikr mavjud. Demak, bunday ayanchli holatni oldini olish uchun odamlar o'rtasidagi munosabatni tartibga oladigan huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishni ta'minlaydigan nazorat tizimi shakllangan bo'lishi kerak.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib o'rnatilishi nazorat tizimiga bog'liq ekan, asosiy e'tibor nazoratni kuchli qilishga qaratilishi lozim. Buning uchun, eng avvalo, nazorat o'zi nima ekanligini anglab olish kerak. **Nazorat bu huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishni ta'minlash orqali jamiyatda tartib o'rnatadigan mexanizm faoliyatidir.** Nazorat mazmunan ichki va tashqi, shaklan yuqoridan va quyidan bo'ladi. Ichki nazorat har bir odam o'zini-o'zi nazorat qilishini anglatadi, tashqi nazorat huquq va axloqqa rioya qilishni davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilishni anglatadi. Yuqoridan nazoratni davlat amalga oshirsa, quyidan jamiyat amalga oshiradi va ular nazorat tizimini tarkibiy qismini tashkil qiladi. Nazorat tizimi ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lishi uchun faqat yuqoridan bo'lgan davlat nazorati etarli emas, buning uchun quyidan jamiyat nazorati ham bo'lishi lozim. Tarix shundan guvohlik bermoqdaki faqat yuqoridan bo'ladigan davlat nazorati adolatli ijtimoiy tartibni to'liq ta'minlay olmaydi. Bunga misol tarzida shuni aytish mumkinki, sobiq sovetlar mamlakati inqirozga kirgan vaqtda, ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun jamiyatni jalb qilishga harakat qiladi. Buning uchun 1979 yilda xalq nazorati to'g'risidagi qonun qabul qilinadi va xalq nazorati tashkiloti tuziladi. Bu tashkilot davlat va jamiyat nazoratini uyg'unlashtirishi lozim edi. Lekin, bu tashkilot davlat va jamiyat nazoratini uyg'unlashtirolmay tezda davlat tashkilotlaridan biriga aylanib qoladi. SHuning uchun bugungi kunda mamlakatimizda nazoratni amalga oshiradigan tashkilot tuzishga emas, balki fuqarolik jamiyatini nazorat tizimining tarkibiy qismiga aylantirishga harakat qilinmoqda. CHunki, davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimigina adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishi mumkin.

Mamalkatimizda shakllanib borayotgan **nazorat tizimini strukturasi**ni jamiyat siyosiy hayotini hozirgi manzarasidan kelib chiqib, quyidagicha tasavvur qilish mumkin:





Nazorat tizimini strukturasi bir-biriga gorizontal va vertikal bog'liq bo'lgan bir qancha elementlardan iborat bo'lgan barqaror yaxlitlik bo'lib hisoblanadi va uni elementlardan birini ishlamasligi tizimni zaiflashuviga olib keladi. Ularni bir-biriga bog'liqligi va samarali ishlashi ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan axborot bilan ta'minlanadi. Umuman, jamiyatga axborot berish nazorat tizimini ishlashini muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Adolatli ijtimoiy tartib qaror topishi uchun jamiyat hayotini barcha sohalarida nazorat bo'lishi lozim. Barcha sohalarida, huquq va axloq normalariga rioya qilish nazorat qilinishi kerak, jumladan, rag'batlantirish tizimida ham davlat va jamiyatni hamkorlikdagi nazorati o'rnatilishi kerak. Iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi yutuqlar uchun rag'batlantirish odamlarni yanada samarali mehnat qilishga undaydigan omil bo'lib hisoblanadi. Rag'batlantirish tizimida adolat bo'lishi uchun nazorat tizimi ishlab turishi lozim. Agar nazoratni faqat hakamlar hayati (jyuri) amalga oshirsa, adolatni ta'minlash gumon bo'ladi. Rag'batlantirishda adolat kafolatlangan bo'lishi uchun nazoratda jamiyat ham ishtirok etishi lozim.

Buning uchun tanlov jarayoni ommaviy axborot vositalari orqali bevosita yoritilishi kerak. Bundan tashqari g'olib deb topilgan va rag'batlantirilgan odam o'z g'olibligini yoki rag'batlantirishga munosibligini jamiyatga OAVlari orqali isbotlab berishi lozimligi kat'iy belgilab qo'yilishi jamiyatni nazoratini anglatadi va adolatni kafolati bo'lib hisoblanadi.

Nazorat tizimini samarali ishlashi, eng avvalo, odamlardagi daxldorlik hissiga bog'liq. Agar odamlarda **daxldorlik hissi** bo'lmasa va ular jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashashsa, bunday jamiyatda nazorat tizimi yaxshi ishlamaydi. Chunki, har qanday tizim ishlab turishi uchun, uni tashkil qilgan elementlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi va bir element ikkinchisiga ta'sir etib turishi kerak bo'ladi, aks holda tizim ishlamay qoladi. Masalan, nazorat tizimini asosiy vositasi bo'lgan deputatlar korpusi o'zini nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun ularni o'zi nazorat ostida bo'lishi kerak. Deputatni elektorat nazorat qilishi uchun esa unda ichki nazorat bo'lishi kerak. Ichki nazorat daxldorlik hissini shakllantiradi va xuddi shunday daxldorlik hissi ichki nazoratni kuchaytiradi. Ichki nazorat kuchli bo'lsa, nazorat tizimi barqaror ishlab turadi. Har qanday mexanizmda bo'lgani kabi nazorat mexanizmida ham harakatni boshlaydigan elementi bo'ladi. Ana shu element jamoatchilik nazoratidir va uni harakatlantiruvchi kuch bu ichki nazoratdir. Bu ichki nazorat ma'naviyat orqali yuzaga keladi. Ma'naviyat, obrazli qilib aytganda mexanizmni harakatga keltiradigan elektr energiyadir. elektr energiya bo'lmasa, mexanizm ishlamagani kabi ma'naviyat bo'lmasa, nazorat mexanizmi ham ishlamaydi. Muammo shundaki elektr energiya ham, ma'naviyat ham ko'zga ko'rinmaydi, shuning uchun ularni shakllantirish qiyin kechadi.

Insonda befarqlik yuqolib daxldorlik hissi shakllanishi ma'naviyat bilan belgilanadi. Axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan ma'naviy yuksaklik insonni o'z ustidan bo'lgan hokimiyatini shakllantiradi. O'z ustidan hokimiyatga ega bo'lgan odam o'z ehtiyoj va manfaatlarini jilovlay oladi va o'zini-o'zi nazorat qila oladi. Va aksincha, o'z ustidan hokimiyatga ega bo'lmagan odam, o'zini o'zi

nazorat qila olmaydi, ya`ni unda ichki nazrat kuchsiz bo`ladi va u o`z ehtiyojlari quliga aylanib qoladi, hamda o`z manfaatini to`g`ri ifodalay olmaydi. Inson o`zini jamiyatdagi ahamiyati bilan mavqei o`rtasidagi muvozanatdan kelib chiqib o`z manfaatini ifodalashi lozim.

Inson birovni nazorat qilish uchun oldin o`zini nazorat qila olishi kerak, yoki birovni boshqarish uchun oldin odam o`zini boshqara olishi kerak. Boshqarish va nazorat qilish uchun esa, hokimiyat kerak. **eng kuchli hokimiyat bu insonning o`zini ustidan bo`lgan hokimiyatidir.** Bu esa, ma`naviyat orqali ta`minlanadi. Buni tushunish uchun ma`naviyatni mohiyatini anglab olish kerak. Xo`sh, ma`naviyatni mohiyati nima? **Ma`naviyatni mohiyati - moddiy va ma`naviy boylikka bo`lgan munosabatda ma`naviy boylikni ustun qo`ya oladigan qalbiy hususiyatdir.**

Insonni ma`naviyatini yuksaltirish uchun ma`naviyatni mohiyatini va ta`rifini bilish etarli emas. Buning uchun odamzod ma`naviyatni o`ziga tasavvur qila olishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovni 2008 yilda nashr qilingan «YUksak ma`naviyat - engilmas kuch» nomli asaridagi ma`naviyatga berilgan ta`rifdan kelib chiqib quyidagi **ma`naviyat strukturasi**ni tasavvur qilish mumkin.



Insonni ma`naviyati yuksalishi uchun u o'ziga bir savol bilan murojaat qilishi lozim. Ma`lumki odamlar dunyoqarashiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Insoniyat jamiyati shakllangandan boshlab adolat bilan razolat o'rtasida betinim kurash bormoqda. Bir guruh odamlar adolat tarafida yurishsa, bir guruh odamlar razolat tarafida yurishadi. Boshqacha qilib aytganda kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir SHayton izmida yuradi. SHundan kelib chiqib har bir inson **men kimni izmida yuribman ?** deb o'ziga savol berishi kerak va javobda o'ziga yolg'on gapirmasligi kerak. Bunday savolni berilishi insonni ma`naviyatini yuksalishiga xizmat qiladi.

Inson ma`naviyati yuksalishi uchun u ma`naviyatni tuzilishini, ta`rifi va mohiyatini bilish bilan birga, hayot mazmuni va baxtli hayot nima ekanligini anglab olgan bo'lishi lozim. Bularni anglab olgan odamda ruh kuchli bo'ladi va unda o'z ustidan hokimiyat shakllanadi. Bundan tashqari inson o'z o'stidan hokimiyatga ega bo'lishi uchun u nimadandir qurqishi kerak, buning uchun unda **iymon** bo'lishi kerak. Inson xalol va haqguy bo'lishi kerak, buning uchun esa, unda **vijdon** bo'lishi kerak. Inson o'z nafsini tiya olishi kerak, buning uchun unda **iroda** kuchli bo'lishi kerak. Insonda iymon, vijdon va iroda kuchli bo'lishi uchun uni **qalbi pok, ruhi kuchli** bo'lishi kerak. Demak, ma`naviyat deganda markazda ruh turgan, uni atrofida qalb shakllangan va ularni negizida iymon, vijdon, iroda yuzaga kelgan uch halqadan iborat doira strukturasini tasavvur qilish kerak. Irodasiz odam hayotda uchraydigan muammolarga qo'l siltab jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashaydi va aksincha, irodasi kuchli odam hayotda uchraydigan muammolarga nisbatan daxldorlik hissi bilan yashaydi va ularni hal qilishga qodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, azaldan ro'y berib kelayotgan adolat bilan razolat o'rtasidagi kurashda kimni g'alaba qozonishi odamlardagi daxldorlik hissigacha bog'liq. Agar odamlar befarq bo'lishsa, bu kurashda razolat g'alaba qozonadi, chunki, adolat yordamga muhtoj, razolat esa tajovuzkor. SHuning uchun

adolatni musichaga, razolatni maynaga qiyoslashadi. Irodasi kuchli odam bunday kurashda befarq bo'lmasdan adolatni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'ladi. **Adolat g'alaba qozongan muhit sog'lom muhitni, sog'lom muhit esa, ijtimoiy tartibni anglatadi.** Demak, ijtimoiy tartibni o'rnatilishi jamiyatni ma'naviy yuksakligi bilan belgilanadi, chunki ma'naviyat nazorat manbai bo'lgan ichki nazoratni shakllantiradi.

Jamiyat ma'naviyati yuksalishi uchun **ma'naviyat qadrlanishi lozim.** Ma'naviyat qadrlanishi deganda, eng avvalo, ma'naviyat ahli qadrlanishini tushunish lozim. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat ahlini mehnati qadrlanishi lozim. Jamiyatda jismoniy mehnat qanday qadrlansa, aqliy mehnat ham shunday qabul qilinishi lozim. Ma'naviyatni faqat fidoyilikka asoslanishi bozor munosabatlari qonuniyatlariga va umuman adolat tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Inson shunday mavjudotki, u faqat boylikka intilib yashaydi. Agar jamiyatda faqat moddiy boylik qadrlansa, odamlar moddiy boylikka intilib yashaydilar. Ma'naviy boylikka intilish uchun **g'oya** aqliy mehnat mahsuli sifatida tan olinishi va qadrlanishi ya'ni **intellektual mulk tushunchasi** shakllangan bo'lishi lozim.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa **jamiyatni intellektual elita ya'ni bilim va ma'naviyat boshqarishi** kerak. Huquqqa rioya qilish, ko'proq, bilim bilan bog'liq bo'lsa, axloqqa rioya qilish ko'proq ma'naviyatga bog'liq. Insoniyat jamiyatini hozirgi bosqichga kelib ma'naviyatni roli oshib bormoqda. Bundan o'n ikki asr oldin hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy «Odamlarning najoti faqat bilim va undan boshqasi bo'lmagay» deb ta'kidlagan edi. O'tgan davr mobaynida insoniyat jamiyatida shunday o'zgarishlar bo'ldiki, endi odamlarni najoti faqat bilim deb aytish etrli bo'lmay qoldi. endi **odamlarni najoti bilim va ma'naviyatda** deb aytish to'g'riroqdir. Insonni bilimi miyasida shakllansa, ma'naviyati qalbida shakllanadi. Agar bilim kuchli bo'lsayu, ma'naviyat qashshoq bo'lsa, bunday bilim razolatga xizmat qiladi. Demak, uyg'unlikda rivojlangan

bilim va ma`naviyat ijtimoiy tartibni ta`minlashi mumkin. Insoniyat jamiyatida bilim va ma`naviyatni o`rnini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Jamiyat taraqqiyotida bilim va ma'naviyatning o'rni



Jamiyat tararqqiyotida bilim va ma`naviyatni ahamiyatini anglab olish uchun muammoni tarixiga nazar solish kerak. YUqorida ta`kidlaganmizdek barcha vaqtlarda donishmandlar qanday qilsak jamiyatda tartib bo'ladi? degan savolni javobini topishga harakat qilishgan. Qadimgi yunon faylasufi Platon o'zini «Davlat» nomli asarida **ijtimoiy tartibni o'rnatilishi uchun jamiyatni intellektual elita ya`ni bilim boshqarishi kerak** deb yozgan. Qadimgi Xitoy mutafakkiri **Konfutsiy ta`limotida jamiyatda tartib o'rnatadigan tamoyillar ichida ma`naviyat ustunlik qilgan.** SHarq Aristoteli deb tanilgan mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiyning asarlarida jamiyatda tartib o'rnatish uchun ma`naviyatga alohida e`tibor qaratiladi. Xullas, mashhur donishmandlar jamiyatda tartib o'rnatishni bilim va ma`naviyatda ko'rishgan. CHunki, **bilim tabiat, jamiyat va tafakkur qonuniyatlarni ochib berib ularni inson manfaatiga xizmat qildirish imkoniyatini beradi. Ma`naviyat esa, ana shu bilimdan oqilona foydalanib uni ezgu maqsadlarga xizmat qilishini ta`minlaydi.** Agar bilim kuchliyu, lekin ma`naviyat qashshoq bo'lsa, bunday bilim razolatga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta`minlaydigan mexanizmni shakllantirishga xizmat qiladigan ma`naviyatni yuksalishi va bu borada amalga oshirilayotgan ma`naviy-ma`rifiy ishlarni yanada samarali kilish quyidagi omillarga bog'liq.

-Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma`naviy-ma`rifiy ishlarni yanada samarali qilish ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kadrlarning bilim va malakasiga bog'liq. Ma`naviyatni targ'ib qilayotgan odamning o'zida ma`naviyat yuksak bo'lishi va u ma`naviyatni mazmun - mohiyatini oddiy jonli so'zlar bilan tushuntira olishi lozim.

-Bundan tashqari ma`naviyatni targ'ib qilishda Ommaviy Axborot Vositalaridan samarali foydalanish kerak. Odamlar dunyoqarashiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi ya`ni kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir SHayton izmida yuradi (I.A.Karimov). Inson kimni izmida yurganligi uni harakatiga qarab emas,

balki haraktini motiviga qarab belgilanadi. Televideniada odamni kimni izmida yurganligini o'rganadigan va uni to'g'ri yo'lga boshqaradigan «**MOTIV**» mavzuidagi ko'rsatuvni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatuv odamlarni ma'naviyatini yuksaltirib to'g'ri yo'ldan yurdiradigan motivlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

-Yana bir taklif, ma'naviy-ma'rifiy ishlar savdo va tadbirkorlik sohasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va ushbu soha tarbiya jarayonidan ozroq chetda qolganligi uchun savdo va tadbirkorlik tizimida ma'naviy tarbiya jarayonini kuchaytirish lozim. Masalan, 2010 yilning boshlarida Samarqand viloyatining Urgut tumanida bo'lgan bozordagi tartibsizliklar ma'naviy tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yilmaganligining oqibatidir. Ma'naviy qashshoq, lekin moddiy jihatdan boy odam jamiyatda tartibsizlikka sabab bo'ladi.

- Ma'naviyat mohiyatining markazida ruh tushunchasi yotganligi va ruh diniy tushuncha ekanligi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda diniy tarbiyadan kengroq foydalanishni taqozo etadi. Odamlar faqat qonundan qo'rqib emas, balkim oxiratda do'zax azobidan qo'rqib to'g'ri yo'ldan yurishga harakat qilishlariga undash lozim. Insonda ikki holatda qo'rquv paydo bo'lishi lozim, ya'ni huquq va axloq normalarini buzish ehtimoli paydo bo'lganda. Huquq normalarini buzish ehtimoli paydo bo'lganda davlatdan va axloq normalarini buzish ehtimoli paydo bo'lganda esa Xudodan qo'rqish kerak.

-Sud huquq organlari tizimida ham ma'naviy targ'ibotni yanada jonlantirish maqsadga muvofiqdir. Sud xokimiyatida ma'naviyatni yuksaltirish ichki nazoratni shakllantirsa, jamiyat ma'naviyatini yuksalishi esa, tashki nazoratni ya'ni jamoatchilik nazoratini shakllantiradi. Ana shu ichki va tashki nazoratning mavjudligi sud xukmining adolatligining kafolati buladi.

- Insonni to'g'ri yuldan yurishini ta'minlaydigan nazorat tizimini samarali qilish uchun nazoratga doir bilimni odamlar ongiga singdirishga xizmat kiladigan «**Ijtimoiy nazorat**» nomli ukuv kursini oliy ta'lim tizimi ukuv dasturiga kiritish maksadga muvofikdir. Ushbu o'quv kursi 2012 yilda tajriba sinov tarzida

SamD Uning ijtimoiy ish yo'nalishida joriy qilindi. endi uni barcha uquv yo'nalishlariga joriy qilish choralarini ko'rish lozim. CHunki, nazoratga doir bilim barcha uchun bir xil zarurdir, nega deganda, inson kim bo'lishi va kaerda ishlashidan kat'iy nazar u o'zini fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va nazorat jarayonida ishtirok etishi lozim.

-Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishni eng muhim omili bu jamiyatda ma'naviyatning qadrlanganligidir. SHuning uchun ma'naviyat namoyandalarini ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qadrlash chora-tadbirlari ko'rish lozim. G'oya va fikr aqliy mehnat mahsuli sifatida tan olinib intellektual mulk tushunchasi shakllanishi kerak. Boshqacha qilib aytganda g'oyani moddiylashuvi va yana ham oddiyroq qilib aytganda g'oyani pulga aylantirish imkoni yuqori bo'lishi lozim.

-Inson ma'naviyatni yuksaltirish uchun ma'naviyatni baholash mezonini ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Ma'naviyatni asosan to'rtta mezon orqali baholash to'g'ri bo'ladi. Birinchisi, inson uchun qanday boylik ustunlik qiladi, moddiy boylikmi yoki ma'naviy boylik. Ikkinchisi, adolat bilan razolat o'rtasidagi kurashda kimning tarafida turibdi. Uchinchisi, jamiyatda uchraydigan voqealarga nisbatan befarqmi yoki daxldorlik hissi bormi. To'rtinchisi, insonning harakatiga qarab emas, balki harakatini motiviga qarab baholash kerak. Ana shu uch mezon orqali inson ma'naviyatiga baho berish mumkin.

Ma'naviyatni yuksaltirishda muhtaram Prezidentimizning «YUksak ma'naviyat-engilmas kuch» asari dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Asar mamlakatni ma'naviy qashshoqlik natijasida, halokatga olib kelish xavfi yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan to'g'ri yo'lni topib chiqib ketishga xizmat qilmoqda. Ma'naviyat muammosini global xarakterda ekanligini inobatga olsak, asar muallifini nafaqat bir mamlakat miqyosidagi balkim global miqyosidagi lider ekanligi ko'rinib turibdi. Ushbu asardagi ezgu goyalarini odamlarni ongi va kalbiga singdirish asosiy vazifa bo'lishi lozim.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti tartib ekanligini va tartibni ta'minlash uchun jamiyatni bilim va ma'naviyat boshqarishi kerakligini olimu ulamolar, donishmandlar va tariqat pirlari allaqachonlar anglab etishgan. Hozirgi kunda ma'naviyat targ'ibotchilarini vazifasi ana shu oddiy haqiqatni odamlarni ongu qalbiga singdirishdan iborat. Chunki, har bir odam o'z aqli bilan mustaqil ravishda ushbu haqiqatni anglab olishi deyarli mumkin emas. Insoniyat jamiyati shunday yaralganki, aholining ma'lum bir oz qismi o'zgalar manfaatini o'ylab yashaydi, qolganlar esa ana shu o'zgalar manfaatini o'ylab yashayotgan ozchilikka ergashib yashashi lozim. Buning uchun ozchilik ko'pchilikni qalbiga ma'naviyatni singdira olishi lozim. Bu esa, faqat ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yanada kuchaytirish orqali ta'minlanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatni modernizatsiyalash kontseptsiyasida belgilab berilgan, **ijtimoiy tartibni** o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlab turishi **nazorat mexanizmini** shakllantirishga, nazorat mexanizmi esa, **jamiyat ma'naviyatini yuksalishiga boqliq**. Aniqroq qilib aytganda bilim va ma'naviyati yuksak jamiyatgina adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodirdir.

XULOSA

Insoniyat jamiyatini mavjud bo'lishi va faoliya olib borishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish masalasi barcha vaqtlarda insoniyatni ilg'or qismini o'ylantirib kelgan dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab baxtli hayot kechiradigan farovon jamiyatni orzu qilib va bunday jamiyat qurishni davlat va xokimiyat bilan bog'lab kelmokda, chunki jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bulgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi, eng avvalo davlatga, aniqroq aytganda davlat nazoratiga bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy tartib shuning uchun jamiyat taraqqiyotining muhim shartiki, ijtimoiy tartib o'rnatilmagan jamiyatda ziddiyatlar va karama-karshiliklar keskinlashib son-sanoqsiz urushlar kelib chiqadi va oxir oqibatda insoniyat jamiyati halok bulishi mumkin. CHunki, insoniyat jamiyati xilma-xil ehtiyojli va manfaatli odamlar majmuidan iborat. Ular o'rtasidagi munosobat murosaga solinib kelishtirilib tartibga olinmasa, odamlar o'rtasidagi munosobatlar keskinlashib yuqorida ta'kidlagan keskin holat kelib chiqishi mumkin. Bunday ayanchli holat ro'y bermasligi uchun insoniyat jamiyatida odamlar o'rtasidagi munosobat huquq va axloq normalari orqali tartibga olinishi kerak. Buning uchun huquq va axloq normalariga rioya qilish nazorat qilinishi lozim, chunki, ijtimoiy regulyatorlar odamlarni to'g'ri yo'ldan yurishga undaydi.

Jamiyat taraqqiyotinin muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib urnatilishi uchun ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloq normalariga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi lozim. Buning uchun xuquq va axloq normalariga rioya qilish nazorat qilinishi kerak bo'ladi. Ana shunday nazoratni davlat o'zini integratsion va boshqaruvchilik funktsiyalari orqali amalga oshrib kelmoqda. Lekin, hozirgi kunga kelib tarix shundan guvohlik bermoqdaki, adolatli ishtimoiy tartibni barqarorligini ta'minlash uchun faqat davlat nazorati etarli emas ekan. Buning uchun jamiyat

nazorati ham ya'ni fuqarolik jamiyati institutlari nazorati ham talab qilinmoqda. Boshqacha qilib aytganda nazorat faqat yuqoridan emas, balkim quyidan ham amalga oshirilishi kerak bo'lmoqda. Agar nazorat faqat yuqoridan amalga oshirilsa, huquq va axloq normalariga rioya qilishni to'liq ta'minlash gumon bo'lib qoladi. Chunki, huquq va axloq normalarini buzgan odam yuqoridan nazorat qiluvchini qarindoshi yoki tanish-bilishi bo'lsa, jazodan qutulib qolishi mumkin. Oqibatda qonun ustivorligi va jazoni muqarrarligi tamoyili ta'minlanmay qoladi. Bunday jamiyatda oxir - oqibatda ijtimoiy tartibga putur etadi, siyosiy parokandalik kelib chiqadi va bu jamiyat inqirozga yuz tuta boshlaydi, natijada, ertami – kechmi bu mamlakat o'z mustaqilligini yuqotishi mumkin. Bunday ayanchli holat yuz bermasligi uchun jamiyatda ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizm shakllangan bo'lishi lozim. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yil 12 noyabrda Parlamentni qo'shma majlisida ma'ruza qilib asosiy e'tiborni nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishga qaratdi. Mamlakatni modernizatsiyalash kontsepsiyasida taklif qilingan "O'zbekistonda jamoatchilik nazorati to'g'risidagi", "Ijtimoiy sherikchilik tug'risidagi", "Ekologik nazorat tug'risidagi", "Davlat hokimiyati boshqaruvi organlari faoliyatini ochiqqligi va oshkoraligi tug'risidagi" va boshqa qonunlar ana shunday nazorat mexanizmini shakllantirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonunlarni qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini samarali kilishga xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotinin muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatilishi jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyatini yuqori bo'lishini taqozo etadi. Chunki, nazorat tizimi samarali ishlashi uchun nazoratni amalga oshiradigan odamlarda nazoratga doir bilim va malaka bulishi lozim. Bunday nazoratga doir bilim va malaka eng avvalo, siyosiy va huquqiy madaniyat asosida shakllanadi. SHuning uchun mamlakatni modernizatsiyalash kontsepsiyasida jamiyatni huquqiy madaniyatini oshirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga

oshirilishi taklif qilindi. Bu boradagi muammo shundaki, mamlakatimizdagi ta'lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan fanlarni o'qitish talab darajasida emas. Bundan tashqari nazoratga doir bilimni beradigan uquv kurslari ham etarli emas. Bunday holatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ta'lim tizimida va eng avvalo oliy ta'lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan uquv kurslarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Nazoratga doir bilim etarli bo'lmasa, ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini nazoratini shakllantirish va kuchli qilish qiyin bo'ladi. Ijtimoiy nazorat kuchli bo'lishi uchun uning tarkibiy qismi bo'lgan davlat nazorati ham, xuddi shunday jamiyat nazorati ham kuchli bo'lishi kerak.

Jamiyatning ilmiy saviyasi past bo'lsa, mavjud muammolarni bartaraf qilib bo'lmaydi, chunki, bilim saviyasi past odam muammoni sababini bilmaydi va faqat oqibat bilan kurash olib boradi. Oqibat bilan kurash olib borish samara bermasligi allaqachonlar isbotlangan haqiqatdir. Sabab mavjud ekan oqibat mavjud bo'ladi. Jamiyatdagi u yoki bu voqeylik mavjud bo'ladi toki uni keltirib chiqargan voqeylik ya'ni sabab mavjud bo'lsa. Sababni bartaraf qilish uchun esa, muammoga ilmiy asosda yondashish lozim. Qolaversa ijtimoiy regulyator bulgan huquq va axloq bilim orqali ishlab chiqilgan. SHuning uchun ularga rioya qilishni ta'minlash ham bilim orqali ta'minlanishi mumkin. Umuman ijtimoiy hayotni barcha sohalarini bilim asosida boqarish lozim, jumladan, ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan huquq va axloqqa rioya qilishni ta'minlash sohasi ham bilim asosida boshqarilishi kerak. Huquq va axloq normalariga rioya qlishni ta'minlashga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishlashiga xizmat qiladigan nazoratga doir bilimni kuchaytirishda "Ijtimoiy nazorat" nomli uquv kursini ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimiga kiritish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy tartib baqarorligi ta'minlanmagan jamiyatda odamlarda norozilik kayfiyati kuchli bo'ladi. Norozilik kayfiyati bo'lgan jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi va bunday jamiyat oxir oqibatda inqirozga uchrab o'z mustaqilligini qo'ldan berishi mumkin. CHunki ijtimoiy tartib deganda

eng avvalo adolat qaror topganligi tushuniladi. Agar jamiyatda adolat qaror topmagan bo'lsa, odamlarda albatta ishonchsizlik va norozilik kelib chiqadi. Nega deganda inson shunday mavjudotki u har kanday qiyinchilikka chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka nisbatan toqat qila olmaydi. Qaerda ko'p menat qilib kam haq oladigan odam bo'lsa, u albatta kam mehnat qilib ko'p haq oladigan odamdan norozi bo'ladi. Bunday holat bo'lmasligi uchun adolatli ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lishi lozim, buning uchun esa, huquq va axloq normalariga rioya qilishni ta'minlashga qodir bo'lgan ijtimoiy nazorat mexanizmi shakllangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni barqarorligi, eng avvalo qonun ustuvorligi va jazoni muqarrarligi ta'minlanib adolat qaror topganligiga bog'liqdir. Adolatni qaror topishi esa sud-huquq tizimiga va eng muhimi sud hokimiyatiga bog'liqdir. Chunki, sud hokimiyati jamiyatda qonunga rioya qilishni ta'minlashga mas'ul bo'lib hisoblanadi. Sud hokimiyati jamiyatda tartibni o'rnatishi uchun oldin uni o'zida tartib o'rnatilgan bo'lishi lozim. Buning uchun sud hukmining adolatligi kafolatlangan bo'lishi lozim. Sud hukmining adolatligini kafolati bo'lib ochiqlik va oshkoralik orqali amalga oshiriladigan jamiyat nazorati hisoblanadi. Jamiyat o'z nazoratini amalga oshirishi uchun esa, jamiyatda mukammal nazorat tizimi shakllangan bo'lishi va jamoatchilik nazorati ushbu tizimni tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Sud hokimiyati ustidan bo'lgan jamiyat nazorati demokratiya talabi bo'lib hisoblanadi. Chunki, demokratiya deganda hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishi tushuniladi. Hokimiyatning har uchchala tarmog'i ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati ham jamiyat nazorati ostida bo'lishi demokratiya talabidir. Demak, sud hokimiyatining hukmini adolatligi kafolatlangan jamiyatda ijtimoiy tartibni barqarorligi ta'minlangan bo'ladi. Sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizlik butun davlatga bo'lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Nazorat tizimi orqali jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartib o'rnatilgan jamiyatda odamlarda sudga va sud orqali davlatga

bo'lgan ishonchi shakllanadi. Bunday ishonch jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, chunki tartib bo'lgan joyda odamlar o'zlarini erkin his qiladilar. erkin yashash hissi esa, nafaqat insonning baxtliligini muhim sharti, balkim insonni samarali mehnat qilishini muhim shartidir. Faqat erkin fikrlaydigan va erkin yashaydigan insongina o'z ichki imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga qodirdir. Mustaqillik O'zbekiston xalqiga adolatli jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatib ana shunday erkin yashash va mehnat qilish imkoniyatini berdi. Bunday adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatilishi va uni barqarorligini ta'minlanishi nazorat tizimiga va uni tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlari nazoratiga bog'liqdir. Bu borada eng muhimi nazorat tizimini samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni shakllanganligidir.

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan nazorat tizimini harakatga keltiradigan va samarali ishlashini ta'minlaydigan kuch bu ma'naviyatdir. SHuning uchun asosiy e'tibor jamiyatning bilim va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda asosiy e'tibor sud-huquq tizimida ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilishi lozim, chunki jamiyatda adolatli ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun eng avvalo, ijtimoiy tartibni o'rnatishga mas'ul bo'lgan tizimni o'zida ya'ni sud-huquq tizimida tartib bo'lishi kerak. Buning uchun esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek sud-huquq tizimida va umuman jamiyatda ma'naviyat yuksak bo'lishi lozim. SHuning mamlakatimizda axloqiy tarbiya negizida ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chor-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Ma'naviyatni yuksaltirishda ammaviy axborot vositalarini, va eng avvalo televideniini imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

SHulardan kelib chiqib televideniida ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan "Motiv" nomli ko'rsatuvni joriy qilishni taklif qilish mumkin. Ma'naviyatni yuksaltirish uchun eng avvalo, ma'naviyatni boholash mezonlarini bilish aniqlab olish kerak. Insonni ma'naviyatiga baho berganda uni harakatiga qarab emas, balki harakatini motiviga qarab beriladi. Motiv deganda insonni harakatga undaydigan sabab tushuniladi. Inson o'zini xilma-xil ehtiyojlarini

qondirishda o'z manfaatlarini qanday ifodalayapdi, ya'ni to'g'ri ifodalayapdimi yoki noto'g'ri ifodalayapdi? Inson o'z manfaatini to'g'ri yoki noto'g'ri ifodalashiga qarab motiv sog'lom va nosog'lom bo'lishi mumkin. O'ylaymizki yuqorida qayd qilingan takliflar va xususan televideniada "Motiv" ko'rsatuvini joriy qilinishi ma'naviyatni yuksaltirishni ta'minlab ijtimoiy nazorat mexanizmini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2012 yil.
- 2.Karimov I.A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997 yil.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent. 2008 yil.
- 4.Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. 2005 yil 8 fevralda Vazirlar mahkamasidagi yig'ilishdagi ma'ruzalari. Xalq so'zi. 2005 yil, 9-fevral'.
- 5.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimiz. 2010 yil, 27 yanvar' parlamentning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2010 yil, 28 yanvar'.
- 6.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Xalq so'zi. 2010 yil 13 noyabr.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir // Toshkent: O'zbekiston, 2010y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz
9. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2010 y 25 iyun' // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining veb-sayti – WWW.press-servic. Uz.

10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2012
11. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent 2012 y.
12. Kavrimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili buyuk kelajagimizning garovidir Risola T. 2012.
13. Al'perovich V. Sotsial'naya gerontologiya. Rostov – na Donu. 1997 god
14. Muxaev R.T. Politologiya. Moskva 1997g.
15. Danilo J. Markovich. Obshaya sotsiologiya. Moskva 1998g.
16. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matubotning o'rni.// Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2006. - №2. –B. 37-40.
17. Vafaev SH. Jamoatchilik nazorati demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili sifatida.// Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – 2007. - №1 – B. 67-69.
18. Berdiyarov SH. Parlament nazorati rolini oshirish omillari// Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent.
16. Odilqoriev X. Parlament nazoratining mohiyati va asosiy shakllari //Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari.- Toshkent: 2005. –B.25-37.
17. Ostonov S. Parlament so'rovi – muhim institut// O'zbekiston ovozi.- 2007.-8 iyul'.
18. Rajabova M. Senatning qonunlar ijrosi bo'yicha nazorat faoliyati // Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. –Toshkent: 2005.- B.84-89.
19. Ro'zinazarov SH. Parlament nazoratini tashkiliy ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari// Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. –Toshkent: 2005.-B.69-77.

20.Fayziev SH. Parlament nazoratining tushunchasi va asosiy yo'nalishlari: huquqiy ta'minlash masalalari Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. –Toshkent: 2005. –B.13-25.

21.Qiyomov M. Qonunchilik nazorati: adolatli va maqbul yo'l bo'lgani bois muhim ahamiyatga ega// Jamiyat.-2010. – 9 aprel'.

22.Qurbonova D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitalari tomonidan nazoratni amalga oshirish tartibi// Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent: 2005. –B.89-93.

23.Hamidova K. Qonunchilik palatasining nazorat faoliyatini amalga oshirishda siyosiy partiyalar fraksiyalarining o'rni // Parlament nazorati: nazariya va amaliyot masalalari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent: 2005.-B.108-114.

24.Nabiev F.X. O'zbekiston siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarda jamoatchilik nazoratini ta'minlash va takomillashtirish. // Fuqarolik jamiyati. 2010 yil, 3-son.

25.Nabiev F.X. Siyosiy faollik. «Zarafshon». 2008 yil, 18 mart.

26.Nabiev F.X. YUksak axloqiylik. «Zarafshon». 2008 yil, 8 avgust.

27.Nabiev F.X. Siyosiy madaniyat. «Zarafshon». 2008 yil, 25 dekabr.

28.Nabiev F.X.Fuqarolik jamiyatini qurishda ma'naviyatning o'rni. «Zarafshon». 2009 yil, 26 fevral.

29.Nabiev F.X.Demokratiya va barqarorlik saylov tizimi xarakteri bilan belgilanadi. «Zarafshon». 2009 yil, 20 iyun.

30.Nabiev F.X. Siyosiy saboq. «Zarafshon». 2009 yil, 8-sentyabr.

31.Nabiev F.X. Demokratiya va oshkoralik sharti. «Zarafshon». 2009 yil, 24 sentyabr'.

32.Nabiev F.X. Jamoatchilik va parlament nazorati hamda deputatlik korpusi ishini takomillashtirish. «Zarafshon». 2009 yil, 12-dekabr'.

33.Nabiev F.X.Deputatlik mavsumiy ish emas. «Adolat». 2010 yil, 5 fevral'.

34.Nabiev F.X. YUksak ma`naviyat va etuk siyosiy madaniyat. «Mahalla», 2010 yil, 29 aprel’.

35.Nabiev F.X. Demokratiya va tartib intizom qat`iy nazoratni talab qiladi. «Zarafshon». 2010 yil, 27 may.

36.Nabiev F.X. Demokratik tamoyillar mezoni yoxud siyosiy partiyalar dasturiy hujjatlarida jamoatchilik nazorati masalalari. «Zarafshon». 2010 yil, 31 iyul.

37.Nabiev F.X. Siyosiy partiyalar o`rtasidagi kurash nazorat borasida bo`lish lozim. «Adolat». 2010 yil, 20 avgust.

38. Nabiev F.X. Obespechenie i sovershenstvovanie obshestvennogo kontrolya v programmnix dokumentax politicheskix partiy Uzbekistana. Fuqarolik jamiyati. Toshkent. 2010 y. 66-70 betlar.

39. Nabiev F.X. Spravedliviy sotsial’niy poryadok vajneyshee uslovie progressa obshesta. “Samarkandskiy vestnik”. 2012 yil 18 fevral.

40. Nabiev F.X. YUksak ma`naviyat va etuk siyosiy madaniyat “Mahalla”. 2010 yil, 29 aprel

41. Nabiev F.X. Befarqlik ham nodonlik demak. “Zarafshon”. 2012 yil, 13 mart.

42. Nazorat va uning ilmiy nazariy asoslari. Zarafshon. 2012 y 21 noyabr.

43. Saylov va nazorat. Zarafshon 2012 y. 7 dekabr.

44. G’oyibnazarov SH. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish yo’li. “O’zbekiston”, Toshkent. 2011 yil.